

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**MAGISTRATURA BO'LIMI**

**Qo'lyozma huquqida  
UDK: 336.22**

**ARIFBAEV BOBUR DILSHODOVICH**

**IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA  
MILLIY IQTISODIYOT TARMOQLARIGA XORIJIY  
INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MASALALARI VA  
MUAMMOLARI**

**Mutaxassislik: 5A230601-«Davlat moliyasini boshqarish»**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**

**prof. Eshnazarov T.**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIALARNI JALB QILISHNING AHAMIYATI VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....</b>	<b>9</b>
1.1. Milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishning zarurligi, ularning turlari hamda mamlakat iqtisodiy o'sishidagi ahamiyati	9
1.2. Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy mazmuni, tarkibiy tuzilishi, shakllari va usullari.....	17
1.3. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning me'yoriy-huquqiy asoslari.....	25
I bob bo'yicha xulosa.....	35
<b>II BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT TARMOQLARIGA XORIJIY INVESTITSIALARNI JALB QILISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI .....</b>	<b>37</b>
2.1. Milliy iqtisodiyotga hamda mintaqalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning amaldagi holati tahlili.....	37
2.2. O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy-moliyaviy shart-sharoitlar tahlili.....	49
II bob bo'yicha xulosa.....	60
<b>III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT TARMOQLARIGA XORIJIY INVESTITSIALARNI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....</b>	<b>61</b>
3.1. Milliy iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari....	61
3.2. Respublika iqtisodiyoti tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni samarali tashkil etish masalalari.....	71
III bob bo'yicha xulosa.....	82
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>	<b>84</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>89</b>

## KIRISH

**Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi.** Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishda zamonaviy ilg‘or texnika va texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni tashkil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifani samarali hal etish uchun esa iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish talab qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov ushbu vazifalarning mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti uchun nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etishini quyidagicha ta’kidlagandilar: “Bir oddiy haqiqatni yaxshi tushinib olish kerakki, O‘zbekistonga kiritilayotgan investitsiyalar, ayniqsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirib kelayotgan sarmoyalar oqimi har bir kishi, umuman, jamiyat hayoti uchun suv va havodek zarur”<sup>1</sup>. 2016-yilda O‘zbekistonda YaIM 2015-yilga nisbatan 7,8 foizga o‘tdi. Sanoat mahsuloti hajmlari — 6,6 foizga, qurilish-pudrat ishlari — 12,5 foizga, chakana savdo aylanmasi — 14,4 foizga, xizmatlar — 12,5 foizga o‘tdi. Davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz miqdorida profitsit bilan ijro etildi. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini ta’minlandi. Inflyatsiya darajasi prognoz parametrlaridan oshmadi va 5,7 foizni tashkil etdi. Milliy iqtisodiyotga 2016-yil 16,6 milliard AQSh dollari miqdorida yoki 2015 yilga nisbatan 9,6 foizga ko‘p investitsiyalar yo‘naltirildi. O‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 11,3 foizga o‘tdi va 3,7 milliard dollardan oshib ketdi. Umumiy qiymati 5,2 milliard dollar bo‘lgan 164 ta yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish yakunlandi<sup>2</sup>.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda investitsiya siyosatining ahamiyati juda muhim hisoblanadi. Bu gapimizni dalili sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirsak, maqsadga muvofiq bo‘lardi: “Mamlakatimizda investitsiya siyosatini kuchaytirish masalasiga biz alohida ustuvor ahamiyat qaratamiz. Xorijiy sarmoyalarni va ilg‘or texnologiyalarni iqtisodiyotga jalb etish uchun chet ellardagi diplomatik

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz.-T.: “O‘zbekiston”, 2001. -157 b.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017 y. -5 b

vakolatxonalarimiz jiddiy ish olib borishi lozim. Buning uchun Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini kuchaytirish, chet mamlakatlardagi elchilarimiz nafaqat siyosiy, ayni vaqtda yurtimizga investitsiyalarni jalb qilish masalalari bilan ham faol shug'ullanishlari darkor. Ularning bu boradagi faoliyatini nazorat qilish uchun Oliy Majlis Senatining Tashqi siyosat masalalari qo'mitasining faoliyat sohasi va vakolatlarini kengaytirish zarur, deb hisoblayman”<sup>3</sup>.

Ma'lumki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar boshqa turdagi mablag'larga nisbatan ancha barqaror investitsiya manbai hisoblanib, ular qisqa muddatli spekulyativ harakterga ega bo'lgan kapital oqimlaridan farqli o'laroq uzoq muddatli kapital qo'yimalarga bo'lgan talabni qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshiradi va mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida o'z o'rnini topishida, uning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvida hamda tashqi savdo aylanmasining yuksalishida va eksport salohiyati yanada rivojlanishida ijobiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi va ular ishtirokidagi korxonalarining faol ish olib borishi “nou-xau”, yangi texnologiyalar, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, mahalliy sanoat va xom ashyo mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi, shuningdek, mazkur korxonalarda mehnat qilayotgan ishchilar turmush darajasining yaxshilanishi bilan bog'liq qator ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

**Tadqiqot ob'yekti va predmeti.** O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, xususan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyati ushbu dissertatsiya tadqiqotining ob'ekti hisoblanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularning mamlakat

---

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017 y. -48 b

iqtisodiyotiga ta'sir qilish jarayonlari, xususiyatlari mazkur tadqiqotning predmeti bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.** Dissertatsiya ishining maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishning zarurligi, ularning turlari hamda mamlakat iqtisodiy o'sishidagi ahamiyatini yoritib berish;
- mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy mazmuni, tarkibiy tuzilishi, shakllari va usullarini tadqiq etish;
- milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning me'yoriy-huquqiy asoslarini o'rganish;
- milliy iqtisodiyotga hamda mintaqalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning amaldagi holatini tahlil qilish;
- O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy-moliyaviy shart-sharoitlarini tahlil qilish;
- milliy iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini tadqiq etish;
- Respublika iqtisodiyoti tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni samarali tashkil etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Ilmiy yangiligi.** Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanishning samaradorligini oshirishga qaratilgan hamda ilmiy jihatdan asoslangan nazariy qoidalar va amaliy tavsiyalar majmui ishlab chiqilgan bo'lib, ular quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- iqtisodiy adabiyotlarda xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanishga doir mavjud nazariy qarashlar umumlashtirilgan;
- hozirgi iqtisodiy va tuzilmaviy o'zgarishlar jarayonida milliy iqtisodiyotga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar majmuaviy tahlil qilingan;

- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanishni rag'batlantiruvchi omillar o'rganilgan;
- investitsiyaviy muhit jozibadorligini yanada oshirish, investitsiyalar oqimini ko'paytirish maqsadida yangi qabul qilingan qonunlar, qaror va farmonlar tahlil qilingan;
- hududlarning iqtisodiy-geografik holatidan kelib chiqqan holda, erkin iqtisodiy zonalarini eng sodda shakllarini tashkil etish taklif etilgan;
- hududlarning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash, ularni kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish hamda ularga xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish maqsadida, ularning infratuzilmasini yaxshilash tavsiya qilingan;
- mahalliy boshqaruv organlariga xorijiy investitsiyalar jalb etish bo'yicha iqtisodiy-huquqiy erkinlik berish taklif etilgan.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Respublika mintaqalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmini takomillashtirish va ularning salmog'ini yanada oshirish orqali ularning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan unumli foydalanish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish mumkin.

**Tadqiqot mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili.** To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilinishi va ular ishtirokida tashkil etilgan korxonalar faoliyatining turli jihatlari qator chet ellik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanishning nazariy asoslari shakllantirilishida R.Vernon, S.X.Xaymer, Ch.P.Kindlberger, F.T.Knikkerboker, E.M.Grem, P.Bakkli, M.Kasson, M.E.Porter, K.Kojima, J.X.Danning<sup>4</sup> kabi yetakchi xorijiy olimlar hissasi katta. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlari bilan bog'liq xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlardan X.P.Lankes, K.Meyer, D.Xolland, R.Barrel, L.Krkoska, X.Tomann,

---

<sup>4</sup> Vernon R. International trade and international investment in the product cycle // The quarterly journal of economics. – Harvard, 1966. – Volume 83. No.1. – pp. 190-207;

N.Fabri, S.Zigni, K.Kozlov, D.Manayenkov, K.Yudayeva, M.Vernikovlarning<sup>5</sup> ilmiy ishlarini keltirish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z investitsiya siyosatini yuritish va mamlakatda qulay investitsiya muhitini vujudga keltirish borasidagi islohotlar ilmiy asosda amalga oshirilmoqda. Investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, investitsiya muhitini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning ta’siri mamlakatimiz Birinchi Prezidenti **I.A.Karimovning** asarlarida batafsil yoritib berilgan. Shuningdek, investitsion muhit va xorijiy investitsiyalarga oid respublika olimlarining qator asarlari mavjud. Chunonchi, A.O‘lmasov, A.V.Vaxabov, D.G‘.G‘ozibekov, A.V.Vahobov, A.S.Jo‘rayev, X.E.Amonov, N.N.Rasulov, N.Qo‘ziyeva va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanish muammolari o‘rganilgan<sup>6</sup>.

**Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi.** Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, taqqoslash, tarkibiy tahlil, prognozlash, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya ishining nazariy ahamiyati “Moliya”, “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish”, “Xorijiy investitsiyalar” fanlari doirasida mamlakat tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning ilmiy-nazariy asoslari va imkoniyatlari o‘rganilganligida namoyon bo‘ladi. Respublika mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘ziga xos

---

<sup>5</sup> Lankes H.P., Venables A.J. Foreign direct investment in economic transition: the changing pattern of investments // The economics of transition. - London, 1996. – Volume 4, No. 2. - pp. 331–347; Krkosa L. FDI financing of capital formation in Central and Eastern Europe. – London: EBRD working paper No. 67, 2001. - 20 p.; Томаи Х. Прямые иностранные инвестиции в переходный период экономики. – Берлин, 2004. – 16 с;

<sup>6</sup> O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. - T.: SHARQ, 2006. -445 b.; Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х. Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики. Учебное пособие. -Т.: 2011; Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma.- T.: “Moliya”, 2010. - 328 b.; G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari.-T.: “MOLIYA”,2003. - 331 b.; Jo‘rayev A.S., Xo‘jamqulov D.Yu., Mamatov B.S. Investitsiya loyihalari tahlili. O‘quv qo‘llanma. - T.: Sharq, 2003. - 256 b.; Амонов Х.Э. Привлечение иностранных инвестиций в условиях приватизации: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - Т.:Банковско-Финансовой Академии, 2002. -20 с.; Расулов Н.Н. Стимулирование привлечения иностранных инвестиций в экономику Узбекистана. - Т.: Фан, 2003. - 170 с.; Ko‘ziyeva N. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar moliya va kredit mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari. Monografiya. - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2006. -296 b.

xususiyatlari va nomutanosibliklarni inobatga olgan holda xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etishning strategik va istiqbolli yoʻnalishlari belgilab olinganligi izlanishning amaliy ahamiyatini belgilab beradi. Shu bilan birga, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning asosiy yoʻnalishlarini aniqlashga doir uslubiy yondashuv tavsiya etilganligi ham ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Ishning tuzilmasining tavsifi.** Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Tadqiqot hajmi 93 betdan iborat boʻlib, 10 ta rasm va 3 ta jadvaldan tashkil topgan.

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning maqsadi va vazifalari, obʻekti, predmeti, oʻrganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati asoslangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati va meʼyoriy-huquqiy asoslari” deb nomlanib, unda toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy va huquqiy asoslari oʻrganilgan.

Ikkinchi bob “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni amaldagi holati tahlili” deb nomlangan. Mazkur bobda Oʻzbekiston iqtisodiyoti tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish amaliyoti oʻrganilgan. Oʻzbekistonda toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy-moliyaviy shart-sharoitlari tahlil qilingan.

Tadqiqotning uchinchi bobi esa “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish masalalari” deb nomlangan. Unda xorijiy investorlar faoliyatini ragʻbatlantirish tizimini takomillashtirishning mamlakat iqtisodiyotiga taʼsiri hamda iqtisodiyotga toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning ustuvor yoʻnalishlari asoslab berilgan.

Ishning **xulosa** qismida ilmiy tadqiqot natijalari umumlashtirilib, kelajakda tadqiq etilishi va bajarilishi lozim boʻlgan asosiy fikr va mulohazalar, ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar keltirilgan.

## **I BOB. MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING AHAMIYATI VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI**

### **1.1. Milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishning zarurligi, ularning turlari ham mamlakat iqtisodiy o'sishidagi ahamiyati**

Xorijiy investitsiyalar xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ahamiyatli rolga ega va ko'p davlatlar uchun muhim kapital manbasi hisoblanadi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida investitsiyalar bazasidagina asosiy kapitalni yangilash hamda shu asosda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va sifatini yaxshilash evaziga mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng, rejali iqtisodiyotdan taraqqiyotning "O'zbek modeli" asosida bozor iqtisodiyotiga o'ta boshlandi. Bunday sharoitda albatta iqtisodiyotni modernizatsiyalashga, oqilona iqtisodiy siyosatga asoslangan holda iqtisodiyot tarmoqlarini tubdan isloh qilishga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi keltirilgan fikrlari: "Barchamiz bir oddiy haqiqatni yaxshi anglab olishimiz darkor – investitsiyalarsiz modernizatsiya ham yangilanish ham bo'lmaydi"<sup>7</sup>, - yuqoridagi gapimizni dalili desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Xorijiy investitsiyalarni o'rganishdan avval, biz investitsiya o'zi nimaligini, qanday tavsiflanishini, turlari va shakllarini, mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga qanchalik muhim ekanligini o'rganish maqsadga muvofiq deb bildik.

Ma'lumki, rejali iqtisodiyotni rad etib, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarini tanlaganimizdan buyon bizning til boyligimizda "investitsiya" atalmish iqtisodiy kategoriya ko'pdan-ko'p qo'llana boshlandi. Biroq, tarix uchun o'tgan juda bir qisqa davr ichida investitsiyaga ko'p ta'rif berildiki, ular o'zlarining rang-barangligi, xilma-xilligi, oddiy va murakkabligi bilan bir-biridan ajralib turadi.

---

<sup>7</sup> Karimov I.A. Asosiy vazifamiz -Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.-T.: "O'zbekiston", 2010. -57 b.

Aslida investitsiyalarning kelib chiqishi, paydo bo'lishi kishilik jamiyati bilan bevosita bog'liqdir. Kishilik jamiyatini rivojlanishi, markazlashgan davlatlarning tashkil topishi hamda jamiyatda pul-tovar munosabatlarining rivojlanishi natijasida investitsiya nazariyalari ham paydo bo'ldi.

Investitsiyaga berilgan ta'riflar miqdori va ko'lami juda ko'p. "Investitsiyalar" tushunchasi serqirra tushuncha. Umuman, investitsiyalar deganda iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiyotning mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatini oshiradigan har qanday joriy faoliyat tushuniladi. Investitsion qo'yilmalarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar investorlar hisoblanadi. Mablag'larni investitsiyalashning iqtisodiy motivi ularni kiritishdan daromad olish hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, investitsiyalar qatoriga faqat keyinchalik kapital hajmini oshirish, foyda olish maqsadida kiritilgan qo'yilmalar kiradi. Iste'mol qo'yilmalari, masalan, maishiy texnika, shaxsiy foydalanish uchun avtomobil yoki boshqa tovarlar sotib olish iqtisodiy mazmuni bo'yicha investitsiyalar qatoriga kirmaydi.

"Investitsiyalar" aslida nemischa "investition", lotincha "investio" so'zidan olingan bo'lib, asosan, ishlab chiqarishga uzoq muddatli qo'yilmalar sarfi, ya'ni xarajatlar yig'indisi deb talqin etilgan.

Investitsiyalar nazariyasi o'zining tarixiy rivojlanish jarayonida bir qancha bosqichlarni bosib o'tdi. V.V.Aladinning fikricha investitsiyalarning dastlabki belgilarini Avstriya iqtisodchilari maktabining ilmiy ishlarida ko'rish mumkin<sup>8</sup>. Iqtisodiy lug'atda "investitsiyalar - kapitalni uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida sanoatga, qishloq xo'jaligiga, transportga va boshqa tarmoqlarga sarf etiladigan xarajatlar yig'indisini aks ettiradi"<sup>9</sup>, - deb ta'riflangan.

Sharp U., Aleksandr G., Beyli Dj. investitsiyalar haqida qo'yidagi fikrlarni bildiradi: mumkin qadar kengroq ma'noda aytganda "investitsiyalar" - bu "kelajakda kattaroq foydaga ega bo'lish uchun buguncha puldan ajralishdir"<sup>10</sup>. Mualliflar, pul mablag'larini qo'yilmalar sifatidagi - investitsiyalar va bu pullardan

---

<sup>8</sup> Аладин В.В. Инвестиционная деятельность субъектов Российской Федерации. – М: Социум, 2002. С.17.

<sup>9</sup> Финансово-кредитный словарь. Т. 1. – М.: «Финансы и статистика», 1984. - С. 470.

<sup>10</sup> Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. ИНВЕСТИЦИИ: Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2003. – XII, С.1.

kelajakda ko‘proq summa olish uchun bugun voz kechish deb qaraydi. Bizningcha bunday fikrlash bir tomonlama bo‘lib, investitsiyalar nafaqat pul mablag‘lari ko‘rinishidagi pul daromadlari bo‘lib qolmay balki, boshqa moddiy va nomoddiy ko‘rinishlarda ham bo‘lishi mumkin. Shuningdek, mualliflar investitsiyalash va jamg‘armalar o‘rtasidagi farqni ko‘rsatib, aytishadiki, jamg‘arma “iste’molga ajratilgan” qiymatdir. “Investitsiyalash” tushunchasi kelajakda milliy maxsulotni ko‘paytirish bilan bog‘liq real investitsiyalashgacha bo‘lgan jarayonni ifodalaydi.

Har bir davlatda, uning iqtisodi rivojlangan yoki iqtisodiyoti o‘tish davri xususiyatiga ega bo‘lishidan qat’iy nazar, mazkur mamlakatga xorijiy sarmoyaning kirib kelishi hamisha ijobiy hodisa sifatida qaraladi. Chunki, kirib kelayotgan sarmoyaning ko‘payishi to‘lov balansini yaxshilash orqali, milliy valyuta kursiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, islohotlar o‘tkazishda zarur mablag‘lar bilan ta’minlaydi, texnik ba’zani yangilashga xizmat qiladi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi, zamonaviy ish yuritish uslubini tadbiiq etadi va bu bilan iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Shuning uchun ham har bir davlat o‘zining investitsion siyosatini izchillik bilan olib borishi va investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi darkordir.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda ham investitsion faoliyatning iqtisodiy masalalarini o‘rganish bo‘yicha jiddiy ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va muayyan muvaffaqiyatlarga ham erishildi. Jumladan, prof. D.G‘.G‘ozibekov investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini moliyaviy kategoriya sifatida talqin etib, aniq va noaniq risklar, safarbar etilayotgan kapitalning hozirgi qiymatini saqlash va uni kapitallashtirish jihatlariga e’tiborni qaratib, qo‘yidagicha ta’rif berishga erishgan: “investitsiyalar nazarda tutilgan va tutilmagan, ammo ehtimoli bor risklar hamda ko‘zlanayotgan samaralarni baholash asosida, o‘z va o‘zga mablag‘lar qiymatining kapitallashuvi va jamg‘arilishini ta’minlash maqsadida moliyaviy va real aktivlarga bog‘lanishidan dalolat beradi”<sup>11</sup>. Keltirilgan fikrlar shundan guvohlik berayaptiki, chindan ham investitsiyalar faqat asosiy kapitalga yo‘naltirilib, qolmasdan balki, aylanma aktivlarni shakllantirishga ham yo‘naltiriladi. Investitsiyalarning samarasi, ularning mazmun-mohiyati, sifat

---

<sup>11</sup> G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: “Moliya” nashriyoti, 2003. 14-15-b.

tavsiflariga bog‘liqligi, moliyalashtirish manbalarining ishonchliligidan kelib chiqishi asoslangan. Investitsiyalarning joriy qiymatini saqlash, bo‘lajak qiymatini ko‘paytirish, kapitallashtirish va yuqori samaralarga erishish yo‘llari tizimli ravishda pulning zamonaviy qiymat kontseptsiyasidan kelib chiqqan holda asoslab berilgan. Muallif investitsiyalarning mazmun va mohiyatini ochishda “investitsiya” tushunchasiga aynan moliyaviy kategoriya sifatida qaraydi va uni aniq va noaniq risklar, safarbar etilayotgan kapitalning hozirgi qiymatini saqlash va uni kapitallashtirish jihatlariga e‘tiborni qaratgan.

Prof. N.H.Haydarov o‘z ilmiy ishlarini korxonalar investitsion faoliyatida moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalariga bag‘ishladi va u qo‘yidagi ta‘rifni berdi: “Investitsiya - bu mulk shaklidan qat‘iy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko‘rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o‘z ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarini qonun doirasida bo‘lgan har qanday tadbirkorlik ob‘ektiga sarflashidir”<sup>12</sup>. Bu yerda muallif investitsiyalarga mulkchilik shakllari, investitsiyalarning turlari va natija olishning iqtisodiy-ijtimoiy tomonlarini mohirlik bilan qamragan holda, ta‘rif berishga erishgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 10 dekabrda “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qayta tahrirdagi Qonunida investitsiyaga quyidagicha ta‘riflanadi: “investitsiyalar-qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat ob‘ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne‘matlar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar”<sup>13</sup>.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni tahlil qilish orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, “investitsiyalar” tushunchasi “kapital qo‘yilmalar”, “investitsiyalarning mulkiy shakli”, “kapital”, “kredit” va boshqa tushunchalarga qaraganda kengroq, “sig‘imliroq” tushuncha hisoblanadi<sup>14</sup>. Kapital qo‘yilmalar investitsiyalarning

---

<sup>12</sup> Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2003. 29 b.

<sup>13</sup> “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2014 yil 10 dekabr.

<sup>14</sup> G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: “Moliya” nashriyoti, 2003. 28-b.

tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning bilan birgalikda investitsiyalarning tarkibida kapital qo'yimlardan tashqari aylanma mablag' (vosita)lar ham mavjud.

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar tushunchasiga turli iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha ta'rif, talqinlar berilgan. Biz ularni o'rganib chiqqan holda quyidagicha ta'riflashni ma'qullaymiz: investitsiyalar - bu daromad olish, ijtimoiy samaraga erishish, keng iste'molchilarning ehtiyojini qondirish maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga, davlat va mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalar, tashkilotlar va fuqarolar tomonidan tadbirkorlik ob'ektlariga uzoq muddatga qo'yiladigan barcha mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklardir.

Mamlakatda iqtisodiyot rivojlangani sari investitsiya faoliyati ham bunga to'g'ri proporsional ravishda rivojlanadi. Aholi hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zida jamg'arilgan daromadlarini foyda olish maqsadida investitsiyaga yo'naltirishadi. Buning natijasida iqtisodiy o'sish jadallashadi hamda o'sha hududda yaratilgan mahsulot hajmi ortib boradi.

Jahon amaliyotida investitsiyalashning uchta asosiy shakli ajratib ko'rsatiladi:

- to'g'ri (real) - kapitalni shakllantiruvchi investitsiyalar;
- portfel (moliyaviy) - investitsiyalar;
- intellektual (aqliy) - nomoddiy investitsiyalar<sup>15</sup>.

O'zbekistonda esa investitsiyalar ikkita turga ajratiladi. Ya'ni: real va portfeli investitsiyalarga<sup>16</sup>.

Real (kapital hosil qiluvchi) investitsiyalar bu - real aktivlarga qo'yimlar, ya'ni asosiy fondlar yoki aylanma aktivlarni oshirish maqsadida yangi korxonalar, ishlab chiqarish, texnologik liniyalar, turli xildagi ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish ob'ektlari qurish yoki mavjudlarini qayta ta'mirlash, texnik qayta jihozlashga qo'yimlardir.

Portfelli investitsiyalar bu – davlat, korxonalar, banklar, investitsion fondlar, sug'urta va boshqa kompaniyalarning qimmatli qog'ozlarini sotib olishga

---


<sup>15</sup> Лоренс Дж. Гитман, Майкл Д. Джонк. Основы инвестирования.-М.: "Дело", 1997. Стр. 10

<sup>16</sup> Xaydarov N. X., Ubaydullaeva S.F. "Xorijiy investitsiyalarni muvofiqlashtirish masalalari". Toshkent - 2011y. 24-25 betlar.

qo'yilmalar hisoblanadi. Bu holatda investorlar qimmatli qog'ozlarga egalik qilishdan daromad olgani holda ishlab chiqarish kapitalini emas, balki moliyaviy kapitalni oshiradi. Bunda qimmatli qog'ozlar sotib olishga sarflangan pul mablag'lari real qo'yilmalarni shu qimmatli qog'ozlarni chiqargan korxonalar va tashkilotlar amalga oshiradi.

Nomoddiy aktivlarga investitsiyalar qatoriga ixtirolar uchun patent va litsenziya, tovar belgilari, yangi texnologiyalarga guvohnomalar, ishlab chiqarish texnologiyalari va mahsulotlarga sertifikatlar va boshqa nomodiy aktivlarga yo'naltiriladigan qo'yilmalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qayta tahrirdagi Qonunida investitsiyalar mo'ljallangan ob'ektiga ko'ra turlarga ajratilgan bo'lib, buni quyidagi 1.1-rasmda ko'rishimiz mumkin:



### **1.1-rasm. Mo'ljallangan ob'ektiga ko'ra investitsiyalarning turlari<sup>17</sup>**


Kapital investitsiyalarga asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shu jumladan yangi qurilishga, modernizatsiyalashga, rekonstruksiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

<sup>17</sup> "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2014 yil 10 dekabr.

Innovatsiya investitsiyalariga yangi yoki takomillashtirilgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni), ishlab chiqarish jarayonini, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda yangi marketing uslubini yoki tashkiliy uslubni ishlab chiqish va o'zlashtirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

Ijtimoiy investitsiyalarga inson salohiyatini, ko'nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

Davlatimiz mustaqillikka erishgan yillardan boshlab, bozor iqtisodiyotiga o'tishda tarqiyotning "O'zbek modeli"ga asoslangan holatda iqtisodiy rivojlanish yo'lidan bormoqda. Bu yo'lda investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki, investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarni qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. Shu jihatdan, mamlakatimizda tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib borilmoqda ( 1.2-rasm).



### **1.2-rasm. O'zbekiston Respublikasining tuzilmaviy investitsiya siyosati<sup>18</sup>**

Yuqoridagi 1.2-rasmda ham ko'rinib turibdiki, tuzilmaviy investitsiya siyosati hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va korxonalar investitsiya siyosatlaridan tarkib

<sup>18</sup> Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. – T.: "O'zbekiston", 2012. 36 b.

topgan bo‘lib, ular bir biri bilan o‘zaro bog‘liqdir. Bu uch investitsiya siyosatning yig‘indisi mamlakat investitsiya siyosatini tashkil qiladi.

Hududlar investitsiya siyosati investitsiyani sarflashda aholi, hudud va investor manfaatlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladigan chora-tadbirlar majmui hisoblanadi.

Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta‘minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eksport qilish, import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ilmiy-texnika taraqqiyotini investitsiya yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi.

Korxonalar investitsiya siyosati ham juda muhim iqtisodiy ham moliyaviy siyosatlardan biri hisoblanadi. Korxonalarni modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy texnika qurollari bilan ta‘minlash, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish, qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish, korxonani foydasini oshirish bularni bari albatta korxonada olib borilgan oqilona investitsiya siyosatga uzviy bog‘liqdir.

Davlat tuzilmaviy investitsiya siyosatida yangi tarmoqlarni tashkil etish va rivojlantirish, aholining iste‘mol tovarlari, ish joylarga bo‘lgan talabini qisqa vaqt ichida yuqori darajada ta‘minlashga erishish yo‘lida quyidagi vazifalarga amal qilmoqda:

- eskirgan ishlab chiqarishlarni sekin-asta muomaladan chiqarib tashlash;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash;
- to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lgan va talabga mos holda ishlab chiqarish tuzilmalarini yaratish;
- ishlab chiqarish resurslaridan va ilmiy-texnika salohiyatidan imkon qadar yuqori darajada foydalanishni ta‘minlash;
- mamlakatning ekologik va iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash va uni kuchaytirish;
- samarali, raqobatga asoslangan ishlab chiqarishlar, bozor infratuzilmasi, xizmat ko‘rsatish soxasi va intellektual faoliyatlar rivojlanishini uyg‘unlashtirish;

-iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish va yangi tarmoqlarni barpo etish;

-aholining ish bilan bandligini va hamda iqtisodiy faolligini oshirish;

-hududlar ijtimoiy infratuzilmasini to'liq shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning roli ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, boshqaruv tajribalarini o'zlashtirish, ishsizlik muamosini hal etishga ko'maklashish, O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ko'plab qayta ishlovchi korxonalarini qurish bilan izohlanadi.

## **1.2. Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy mazmuni, tarkibiy tuzilishi, shakllari va usullari**

Har qanday jamiyatning yashashi uchun ishlab chiqarish uzluksiz davom etishi shart. Unda uzilish yuz bersa kishilarning hayotiy ehtiyojlari qondirilmaydi. Ishlab chiqarishni doimiy takrorlanib turishi va umuman iqtisodiyotning ahvoli investitsiyalarning holatidan kelib chiqadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki hech qaysi davlat jahon iqtisodiyotidan ayri holda tashqi yordamlarsiz boshqacha aytganda xorijiy sarmoya va ko'maklarsiz iqtisodiy taraqqiyotga erishishi mumkin emas.

Investitsiyalash kim tomonidan amalga oshirilganligi nuqtai nazaridan ikki turga, ya'ni ichki va tashqi investitsiyalarga bo'linadi.

Ichki investitsiyalar bu mazkur davlat hududida ichki investorlar tomonidan yo'naltiriladigan investitsiyalardir. Tashqi investitsiyalar yoki xorijiy investitsiyalar – chet el mulkdorlarining mutloq boshqa mamlakat iqtisodiyotining qonun bilan ta'qiqlanmagan turli tarmoqlariga yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida muayyan muddatga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklardir.

Chet el investitsiyalari xorijiy investorlar tomonidan yo'naltiriladigan investitsiyalar hisoblanadi. U xorijiy mulkdorlarning boshqa mamlakat

iqtisodiyotining turli tarmoqlariga (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa tarmoqlar) daromad olish maqsadida muayyan muddatga qo'yiladigan kapitaldir<sup>19</sup>.

Chet el investitsiyalari deganda, milliy iqtisodiyotga qo'yilgan xorijiy mamlakatlarning valyutadagi pul mablag'lari, qimmatbaho qog'ozlari, shuningdek, kreditlar ko'rinishidagi kapital qo'yilmalarining barcha shakllari tushuniladi.

Xorijiy investitsiyalarning ichki investitsiyalardan farqi, ularning manba va kapital egasi jihatidan hududiy farqlanishi hamda olingan natijaga egalik qilish munosabatlarida o'z aksini topadi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni amalga oshirishda ular bilan bog'liq barcha risk (xatar)lar oldindan hisoblab chiqilgan bo'ladi. Ya'ni, xorijiy investitsiyalar chet ellik investorlarning o'z kapitalidan unumli foydalanish maqsadida boshqa mamlakat iqtisodiyotiga minimal risk asosida yo'naltirib, imkon qadar qisqa vaqt ichida ko'proq foyda olishga erishish maqsadida mablag'larning joylashtirilishidir.

Bir davlatdan boshqa davlatga daromad olish uchun yo'naltirilgan har qanday shakldagi mulkni to'la qonli xorijiy investitsiya deyishimiz mumkin. Ammo shunday mulk shakllari borki, biz ularni xorijiy investitsiya deya olmaymiz. Masalan, elchixonada chet davlat mulki hisoblanadi, yoki xorijiy fuqaro shaxsiy uy sotib olsa, - bu xorijiy shaxs mulki hisoblanadi, lekin xorijiy investitsiya bo'la olmaydi.

“Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga ko'ra “chet el investorlari asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari”<sup>20</sup> deb e'tirof etiladi.

“Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga ko'ra chet ellik investorlar xorijiy davlatlar, ajnabiy fuqarolar,


---

<sup>19</sup> Soliyev A.S., Mirzaaxmedov S.X., Jumaxanov Sh.Z “Qo'shma korxonalar geografiyasi”.-Namangan.: Namangan nashriyoti, 2006.

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.

fuqarolarning uyushmalari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, chet elda doimiy ravishda yashaydigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘lishi mumkin. Shuni ta’kidlash zarurki, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda ishtirokchilardan biri albatta xorijiy yuridik shaxslardan bo‘lishi talab etiladi.

Fikrimizcha, xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Bunda mamlakat o‘z iqtisodiyotini rivojlantirishda mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb qiladi, ya’ni ular xorijiy investitsiyalar uchun maxsus investitsiya siyosati yurgizadi va mamlakat investitsiya muhitini yaxshilashda amaliy ishlarni amalga oshiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, mamlakatda yaratilgan me’yoriy-huquqiy baza xorijiy investorlar uchun katta ahamiyat kasb etadi.



**1.3-rasm. Xorijiy investitsiyalar tarkibi**<sup>21</sup>

<sup>21</sup> Iqtisodiy ma'lumotlar asosida magistrant tomonidan tayyorlandi

Investitsiyalarning tarkibiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda moddiy, moliyaviy, intellektual va boshqa turdagi boyliklar mavjudligini ko'rish mumkin. O'z navbatida bu tasnif xorijiy investitsiyalarga ham taaluqlidir. Uni quyidagi 1.3-rasmda ko'rishimiz mumkin.


Xorijiy investitsiyalarni mulkchilik shakliga ko'ra xususiy, davlat, xorijiy va aralash investitsiyalarga tasniflash maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga xorijiy investitsiyalarni yo'nalish ob'ektiga qarab moliyaviy va real investitsiyalarga ham ajratish mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy investitsiyalarning tarkibida asosiy o'rinni shaxsiy mulk egalarining investitsiyalari tashkil etadi.

Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag'batlantirgan holda jalb qilinadi. Lekin chet el kapitalini jalb qilishning hamma shakllari ha moliyalashtirishning tashqi manbai bulmasligi mumkin. Bu birinchi navbatda foiz tulovlari bilan qaytarishni talab etadigan kreditlar va qarzlarga taaluqli. Chunki, chet el kreditlari va xalqaro moliya institutlari qarzlari ma'lum vaqt o'tgach asosiy qarz bilan birga belgilangan foizlarining qaytarilishini talab etadi. Chetdan jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar bilan chet eldan kiritiladigan kreditlarning o'ziga xos farqlari mavjuddir. Bu borada xorijiy investitsiyalar risklar doirasi bilan chet el kreditlari risklari kengligi farqlanadi.

Chet el investitsiyalari kapital eksport qiluvchi mamlakatlarning importyor mamlakatlar iqtisodiy sub'ektlari hamda qushma korxonalar real va moliyaviy aktivlariga kiritgan mablag'laridir. Chet eldan investitsiyalash kapital oqimining bir iqtisodiyotdan boshqasiga chiqib ketishini bildiradi, boyliklarni yanada foydaliroq shartlarda joylashtirish va investitsiyalar chet ellikka – kapital egasiga qaytishiga qadar nisbatan uzoq vaqt davomida mablag'lar oqimini ta'minlash maqsadlarini nazarda tutadi. Ularga oqib ketish, qochish, ya'ni mamlakatlararo kuchib yurish xos. Chet el investitsiyalari mohiyat jihatidan uz milliy investiiya muhitini uzga muhitga almashtiradi. Xavfsizlik, daromadlilik, kapitallashuv va likvidlikdan tashqari chet el investitsiyalarining uziga xos muhim belgisi – aniq

maqsadlarni kuzlashi hisoblanadi<sup>22</sup>. Ularning e'tiborini tortuvchi iqtisodiyot ham uz maqsadlariga erishishga intiladi. Bu maqsadlar samaradorlik, ishlab chiqarishni ustirish, bozorlarga kirib borish yoki noiqtisodiy mazmundagi vazifalar bulishi mumkin. Shu sababli, uzaro manfaatlarning mos tushishi, ishonchli munosabatlar, kirib borish sharoitlarini hisobga olish investitsiyalarning bir mamlakatdan boshqasiga kuchishining asosi hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish shakllariga ko'ra ham tasniflash mumkin. Buni quyidagi 1.4-rasmda ko'rishimiz mumkin.



**1.4-rasm. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish shakllariga ko'ra tasniflanishi<sup>23</sup>**

<sup>22</sup> G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: «Moliya» nashriyoti, 2013 yil. 32-bet.

<sup>23</sup> Maqsudov F., Anorqulova I. O'zbekiston iqtisodiyoti uchun bevosita xorijiy investitsiyalar: ishlarning borishi va istiqbollari. //Bozor,pul va kredit. 5-son, 1997.6-b

Xorijiy investitsiyalar kapitalni qulayroq qilib joylashtirish hamda u egasiga qaytib kelgunga qadar nisbatan uzoq muddat davomida undan foyda ko'rish maqsadida eksport qiluvchi mamlakatlarning kapital qabul qiluvchi mamlakatlar real va moliyaviy aktivlariga quyilishini bildirgan holda, bir iqtisodiyotdan ikinchisiga o'tayotgan kapital oqimini ko'rsatadi.

“Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi Qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida chet ellik investorlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari;
- davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq sub'ektlari bo'lgan xalqaro tashkilotlar;
- chet el davlatlarining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat kqrsatib kelayotgan yuridik shaxslar boshqa har qanday shirkatlarlar, tashkilotlar yoki uyushmalar;
- chet el davlati fuqarolari bo'lmish jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet ellarda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.

Investitsiyalarni, shu bilan birga xorijiy investitsiyalarni ham nima va qaysi sohalarga sarflanishiga qarab, moliyaviy va real investitsiyalarga ajratish mumkin.

Moliyaviy investitsiyalar xususiy kompaniyalar va davlat idoralari tomonidan muomalaga chiqarilgan aktsiyalarga, obligatsiyalarga, boshqa qimmatli qog'ozlarga va bank depozitlariga, uzoq muddatga jalb qilingan qo'yilmalardir. Moliyaviy investitsiyalar qimmatli qog'ozlar bozorida sarflanishini va shu bozorda qatnashishini anglatadi. Moliyaviy investitsiyalarning asosiy qismi kapitalning noishlab chiqarish sohasiga sarflanadi.

Moliyaviy investitsiyalar erkin bozor iqtisodiyoti infrastrukturasi, qimmatli qog'ozlar bozori va umuman moliya bozori kapitali rivojlangan mamlakatlarda kqproq tarqalgan.

Rivojlangan davlatlarda moliyaviy investitsiyalarning tarkibida asosiy o'rinni shaxsiy mulk egalari investitsiyalari tashkil etadi. Respublikamizda qimmatli qog'ozlar bozori esa faqatgina shakllanish bosqichida bo'lib, moliyaviy kapitalni sohalar qrtasida taqsimlash funktsiyasini deyarli bajarmayapti.

Real investitsiyalar esa moliyaviy investitsiyalardan farqlidirlar. Real investitsiyalarning sarfi asosiy fondlarning o'sishiga, yangilanishiga, ishlab turgan korxonalarni kengaytirishga, moddiy boyliklarni kqpaytirishga olib keladi.

Fan-texnika taraqqiyoti kuchayishi bilan intellektual potentsial ishlab chiqarishning eng kuchli omiliga aylandi, uning jiddiy elementi bo'lib qoldi. Bugungi kunda real investitsiyalar tarkibida ilmiy izlanishlar, fan, ta'lim, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash uchun sarflanadigan xarajatlar o'sib bormoqda. Jahon bozoriga kirib borish, keng ko'lamda marketingni rivojlantirish, batafsil informatsiyaga ega bo'lish, yuqori darajadagi kompyuter tizimlarini tashkil etishni, yuqori malakali raqobatbop kadrlar tayyorlashni va bu sohada dunyodagi rivojlangan davlatlar darajasiga erishishni talab etadi. Shuning uchun ham tez sur'atlar bilan rivojlanishda real investitsiyalar tarkibida fan, texnika, ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash uchun sarflanadigan real investitsiyalar asosiy o'rinlardan birini egallashi lozim.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda real investitsiyalarning asosiy qismini xususiy investitsiyalar tashkil etadi.

Shuningdek, ta'kidlash zarurki, chet el adabiyoti va xalqaro buxgalteriya standartiga kqra investitsiyalar tarkibiga asosiy kapitalga qilgan xarajatlar bilan bir qatorda ishlab chiqarishning joriy xarajatlari ham kiritiladi. Investitsiyalar sub'ekti kim bo'lishidan qa'tiy nazar, investitsiya qilinayotgan sarf-harajatlar darajasi ikki asosiy omilga bog'liq bo'ladi:

- tadbirkorning investitsiyalash natijasida olinishi mqljallangan sof foyda normasiga;
- banklarga qo'yilgan omonat va depozit jamg'armalar bo'yicha belgilangan foiz stavkalariga.

Demak, investitsiyalash natijasida olingan sof foyda normasi bankning jamg'armalar bo'yicha to'laydigan foizi stavkasidan yuqori bo'lgandagina samarali hisoblanadi. Agar jamg'armalar bo'yicha foiz stavkasi investitsiya natijasida olinadigan sof foyda normasidan yuqori bo'lsa, ishlab chiqarishga investitsiyani amalga oshirish foydali emasdir. Bu ikki omilning bo'lishi, ya'ni sof foyda

normasining yuqori darajada bo'lishi uchun shart-sharoitlarni yaratish chetdan investitsiyalarni jalb qilishga imkon yaratadi. Shuning uchun ham hozirda jahon iqtisodiyotida investitsiya oqimi ko'proq yuqori foyda olish sohalari mavjud bo'lgan yoki banklardagi jamg'armalarga to'lanadigan foiz stavkalari yuqori bo'lgan mamlakatlarga yo'naltirilgandir.

Korxonalar va kompaniyalar faoliyati ustidan nazorat qilish yoki mulkka egalik qilish nuqtai nazaridan xorijiy investorning qo'yilmalari bevosita va portfel investitsiyalarga bo'linadi. Bevosita investitsiyalar ishlab chiqarish kapitalini to'g'ridan-to'g'ri tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltirishni anglatadi. Bunday investitsiyalar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- u yoki bu korxonalar (firmalar)lar aksiyasining nazorat paketini sotib olish orqali;
- o'zining ishlab chiqarish quvvatlarini qurish orqali;
- qo'shma korxonalarini barpo etish orqali.

Bevosita qo'yiladigan investitsiyalar har qanday holatda ham xorijiy investorga investitsiyalash ob'ekti bo'lgan korxonalar, firmalarning ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishda samarali ishtirokini ta'minlaydi.

Xorijiy investorlar bilan qo'shma korxonalar tashkil qilish mamlakatimizga:

- yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb qilish, ularni ishlab chiqarishga joriy qilish esa necha yillar davomida sifatsiz, xaridor talabiga javob bera olmaydigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi eski texnikalardan tezroq qutilish imkonini beradi;
- yangi ish joylari tashkil qilish va aholining ishsiz qismini ish bilan ta'minlash, shu bilan birga xorijiy ilg'or boshqaruv tajribasini joriy qilish imkonini beradi va shu orqali mehnat unumdorligi oshiriladi;

Jahon bozorida raqobatlasha oladigan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eskport qilish evaziga mamlakatga qadri baland valyutalarning ko'proq kirib kelishini ta'minlaydi.

Yuqori texnik saviyadagi tayyor mahsulotlar ulushi oshirilishi quyidagi jihatlarga bog'liq:

a) xorijiy mamlakatlardagi korxonalar o'rtasida operatsiya aloqalarining shakllanishiga ko'maklashish;

b) yuqori texnologiya va ilm talab qiluvchi mahsulotlar ishlab chiqarilishi va ichki tizimi yaxshilanishiga xizmat qilish;

v) eksportning intellektual mulk ob'ektlari litsenziyalarini hamda nou-xau shaklida texnik-tijorat sirlarini sotish, injiniring va lizing sohalarida xizmatlar ko'rsatish kabi turlarini rivojlantirish yo'li bilan respublikamizda erishilgan ilmiy-texnik yutuqlarining jahon xo'jaligi aylanmasiga kirib borishini tezlashtirish;

g) ilmiy ishlanmalarga, xususan, amaliy fan-texnologiyalar transferti sohasidagi ilmiy ishlanmalarga bozor yo'nalishini beruvchi shart-sharoit yaratuvchi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini ishlab chiqish;

d) innovatsiya jarayonini davlat tomonidan va tijorat usulida qo'llab-quvvatlashning eng maqbul uyg'unlashuvi asosiy yo'llarini belgilab olish hamda ilmiy-texnik ishlanmalarni tijorat ahamiyatiga molik natijalar darajasigacha etkazish;

e) o'zbek olimlari-mutaxassislarining chet eldagi etakchi institutlar, tashkilotlar va firmalar bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish; yuqori darajali marketing tadqiqotlari o'tkazish, tijorat va texnologiya menejmenti sohasidagi yutuqlarni o'rganish, xorijiy bozorlarning konyunkturasi, sig'imi hamda raqobatchilarning narx siyosati, kooperatsiya, qo'shma korxonalar tashkil etish bo'yicha hamkorlar qidirish yuzasidan tahliliy ma'lumotlarni o'rganish va h.k..

### **1.3. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning me'yoriy-huquqiy asoslari**

O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalasi hozirda iqtisodiyotni barqarorlashtirishdagi, agrar respublikani industrial davlatga aylantirishdagi ana shunday muhim muammolardandir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Biz tashqi iqtisodiy faoliyatni

rivojlantirishda iqtisodiyotimizga xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay sharoit yaratishga juda katta ahamiyat bermoqdamiz<sup>24</sup>. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda quyidagi tamoyillarga asoslanilmoqda:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni koʻzlab siyosat yuritish;

- respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablagʻni keng jalb etishni taʼminlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;

- respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan xalq xoʻjaligining zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga koʻmaklashayotgan xorijiy sarmoyadorlarni yanada qoʻllab-quvvatlash;

- mablagʻlarni respublika mustaqilligini taʼminlaydigan va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bogʻliq boʻlgan eng muhim ustuvor yoʻnalishlarda jamlash.

Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini barqarorlashtirish, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini kengaytirish, milliy iqtisodiyotimizni jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini taʼminlash dolzarb masalalardan sanaladi.

Istiqlol yillarida respublikamiz hukumati tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qoʻllab-quvvatlash, aholini ish bilan taʼminlash va ijtimoiy jihatdan himoyalashga yoʻnaltirilgan alohida amallar bilan bir qatorda xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida ham bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotimizga jalb etish va ular yordamida tashkil etiladigan korxonalarining faoliyatini yoʻlga qoʻyish yuqorida aytib oʻtilgan dolzarb vazifalarning yechimini izlash yoʻlida qilinadigan muhim ishlar jumlasiga kiradi.

Mamlakatimizning barqaror iqtisodiy oʻsishini, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini mustahkamlash va kengaytirishni, milliy iqtisodiyotimizni jahon xoʻjaligi tizimiga integratsiyalanashuvini taʼminlashga, tadbirkorlik subʼektlari

---

<sup>24</sup> Karimov I.A. Oʻzbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yoʻlida. -T.:“Oʻzbekiston”, 1995. 115-b.

hamda investorlarga zarur kafolatlarni yaratib berishga xizmat qiluvchi muhim loyihalarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, zarur normativ-huquqiy bazaning yaratilishi kutilgan natijalarni bermoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali zamonaviy texnologiyalar asosida tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni tashkil etish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan uzoq muddatli kapital qo‘yilmalari uchun barcha qulay shart-sharoitlar yaratildi. Shu bilan birgalikda, iqtisodiy islohotlar davrida tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari takomillashib bormoqda. “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”, “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”, “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”, “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”, “Eksport nazorati to‘g‘risida” kabi qonunlar qabul qilinib, ular O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishga zamin yaratdi.

Jumladan, 1998 yilda O‘zbekiston Respublikasining “Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida”gi va “Xorijiy investorlarning xuquqlari kafolatlari va himoyalash choralari to‘g‘risida”gi Qonunlari qabul qilingan bo‘lib, ular respublikamizda xorijiy investorlar va ular ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy-me‘yoriy hujjatlarning qabul qilinishi fikrimizning dalilidir.

Xorijiy investorlar uchun O‘zbekistonda turli shakllarda investitsiyalarni amalga oshirish imkoniyati yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan chet ellik investorlar O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tashkil etishlari hamda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan o‘zlariga berilgan barcha huquqlar, kafolatlari va imtiyozlardan foydalanishlari mumkin. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar deganda aksiyalarining (ulushlari, paylarining) yoki ustav jamg‘armasining kamida o‘ttiz foizini chet el investitsiyalari tashkil etadigan korxonalar tushuniladi<sup>25</sup>. Ular O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan

---

<sup>25</sup> Bunday ta‘rif davlat tomonidan beriladigan soliq va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llash uchun ishlatiladi.

shakllantirilgan qonun hujjatlariga zid kelmaydigan har qanday tashkiliy-huquqiy shakllarda faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar qatnashchilaridan biri chet ellik investor bo'lishi hamda korxonalar ustav kapitali miqdori kamida 150 000 AQSh dollari ekvivalentida bo'lishi talab etiladi. Ayrim hollarda ustav kapitalning talab qilingan minimal darajasi miqdori pasaytirilgan bo'lib (jumladan, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun ushbu talab 75000 AQSh dollari miqdorida o'rnatilgan), ishchi kuchi ortiqcha bo'lgan mintaqalarga kapitalni jalb etishni rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladi.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uni ta'sis etish yo'li bilan yoki mavjud (faoliyat yuritib turgan) korxonada ishtirok etish ulushini (payini, aksiyalarini) yoxud bunday korxonalar butunlay, shu jumladan xususiy lashtirish jarayonida chet ellik investor tomonidan sotib olinishi natijasida tashkil etilishi mumkin. Tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy investorlar O'zbekiston bozoriga kirib kelishida ishlab turgan korxonalar sotib olish amaliyoti ko'proq xususiy lashtirish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, ayrim hollarda esa bozorda yuqori mavqega (shu jumladan, telekommunikatsiya, kimyo sanoati va qurilish materiallari kabi sohalarda) ega bo'lgan korxonalar investitsiya qilish bilan bog'liq. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar davlat ro'yxatiga olish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida Davlat O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishlari chog'ida ularning barcha huquqlari kafolatlanishi va himoya qilinishi qayd etib o'tilgan. Chet ellik investorlar va chet el investitsiyalari uchun adolatli va teng huquqli rejim, ularning to'liq va doimiy himoyasi hamda xavfsizligi ta'minlanishi ko'rsatiladi. Bunday rejim O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalarning tegishli rejimiga qaraganda noqulayroq bo'lishi mumkin emas. Mazkur tartib alohida e'tiborga loyiq bo'lib, xorijiy investorlar faoliyati uchun qulay sharoit yaratilganligini ko'rsatadi. Ma'lumki, chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar

alohida soliq, bojxona va boshqa imtiyozlar berilgan bo'lib, ular ayni paytda barcha bozor ishtirokchilariga berilgan turli qo'shimcha imtiyozlardan ham foydalanish imkoniyatiga ega.

Chet ellik investorlarning O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kafolatlangan huquqlari va manfaatlari buzilganda ularni tiklash O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, shu jumladan xalqaro shartnomalari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasida chet el investorlari faoliyatini himoya qilishning huquqiy asosini mustahkamlash maqsadida 1998-yil 30 apreldagi "Xorijiy investorlarning huquqlari kafolatlari va himoyalash choralari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida qabul qilindi. Xorijiy investorlar huquqlarini kafolatlash tizimining ishchan mexanizmini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2003-yil 2 maydagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 58-sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bu borada mas'ul davlat organi deb belgilandi va tegishli ravishda unga qo'shimcha vakolatlar berildi.

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda erkin iqtisodiy zonalar muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilinishi mazkur davlatlarning taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan va bunda erkin iqtisodiy zonalar muhim ahamiyat kasb etgan.

Mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish va ular faoliyatiga doir munosabatlar 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan "Erkin iqtisodiy hududlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 oktyabrdagi PF-4853-sonli "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish tartibi, uning turlari, mazkur hududlar ishtirokchilariga qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalar berish mexanizmini o'zida aks ettiradi. Bu Farmonga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi,

Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi, "Angren" va "Jizzax" maxsus industrial zonalarini nomini birxillashtirish maqsadida ularni "Navoiy", "Angren" va "Jizzax" erkin iqtisodiy zonalar deb yuritiladigan bo'ldi.

Bundan tashqari 2017 yil 12-yanvarda tashqi bozorlarda talab katta bo'lgan, yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan mineral-xom ashyo va qishloq xo'jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlarni yaratish, shuningdek, Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Xorazm viloyatlarining ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asosda yangi ish o'rinlari tashkil etish hamda aholi daromadlarini oshirish maqsadida "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4931-sonli Farmoni imzolandi. Farmonga ko'ra "Urgut" EIZ, "G'ijduvon" EIZ, "Qo'qon" EIZ va "Hazorasp" EIZning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib tashqi bozorlarda talab katta bo'lgan va importning o'rnini bosuvchi, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investorlarning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarini jalb etish; Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Xorazm viloyatlarining ishlab chiqarish va resurs salohiyatlaridan kompleks hamda samarali foydalanishni ta'minlash; meva-sabzavot va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, saqlash va qadoqlash, to'qimachilik, gilam to'qish, poyabzal va charm-galantereya, ekologik jihatdan xavfsiz kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik va avtomobilsozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa yo'nalishlarda yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish; mahalliy xom ashyo va materiallar negizida mustahkam kooperatsiya aloqalarini o'rnatish hamda erkin iqtisodiy zonalar korxonalarini o'rtasida va umuman respublikada sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosida yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab

chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish; ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni standartlashtirish, sertifikatlashtirish va markirovka qilish bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq ilmiy-ishlab chiqarish markazlari tashkil etish va ularning qarorlari xalqaro darajada e'tirof etilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish belgilandi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda keng qo'llanilayotgan yana bir rag'batlantiruvchi chora shundan iboratki, agar mamlakatdagi keyingi qonun hujjatlari investitsiyalash shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, unda chet ellik investorlarga nisbatan investitsiyalash sanasida amal qilgan qonun hujjatlari investitsiyalash paytidan boshlab ma'lum bir muddatga qo'llash kafolatlanadi. Ushbu chora O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham o'z aksini topgan bo'lib, xorijiy investorlarga investitsiyalash sanasida amal qilgan qonun hujjatlari investitsiyalash paytidan boshlab o'n yil mobaynida qo'llash kafolati beriladi. Chet ellik investor o'z xohishiga ko'ra yangi qonun hujjatlarining investitsiyalash shart-sharoitlarini yaxshilaydigan qoidalarini qo'llash huquqiga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-aprel kuni "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4434-sonli Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmonga ko'ra qiymati 50 million AQSh dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo'lgan investitsiya loyihalari doirasida, ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish budget mablag'lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

Shu bilan birga, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganligi, jahon va mintaqaviy investitsiya bozorlarida raqobat kuchayib borayotganligi mamlakatda yana ham qulayroq investitsiya muhitini yaratish, ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish, shuningdek, xorijiy investorlar bilan ishlashdagi mavjud byurokratik g'ovlar va to'siqlarni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga davlat va

nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarga yo‘l qo‘ymaslik borasida qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishini taqozo etmoqda.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan korxonalar o‘z haquqlarini himoyalashiga xizmat qiluvchi mexanizmdan oqilona va o‘rinli foydalanishmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun mamalakatimizda qulay shart-sharoitlar yaratilganidan, davlatimiz tomonidan bu sohaga jiddiy e‘tibor berilayotganidan dalolatdir.

Investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2014 yil 10 dekabrda yangi tahrirdagi “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 2014-yil 7-aprelda “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 15 aprelda “Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi.

Prezident Farmonida ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirish, maksimal darajada qulay investitsiya iqlimini yaratish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyatining ochiq-oydinligini kuchaytirish, shu asosda tadbirkorlik faoliyatini yuritish sharoitlarini tubdan yaxshilash, yangi ish joylarini barpo etish va iqtisodiyotning xususiy sektorida aholi bandligini oshirish choralari ko‘zda tutilgan.

Ushbu hujjat bilan 2014-2015 yillarda investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag‘batlantirish samaradorligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Ya‘ni tadbirkorlik sub‘yektlari va investorlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni yanada takomillashtirish va erkinlashtirish, davlat va mahalliy boshqaruv organlarining tadbirkorlik sub‘ektlari bilan o‘zaro munosabatlaridagi samarani ko‘paytirish, oshkoraligini ta‘minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va muvofiqlashtirishning institutsional tizimini takomillashtirishda

ko'zda tutilgan. Shuningdek, korporativ boshqaruvni, sub'yektlarni kreditlash mexanizmlarini rivojlantirish, ularga ko'rsatiladigan xizmatlar doirasini kengaytirish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish, sifatni boshqarish standartlarini joriy etish va xususiy mulkdorlar rolini oshirish shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, Farmonga ko'ra, joriy yilning 1-iyunidan davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytlarida chop etilmagan ularning tadbirkorlik sub'yektlari bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soladigan me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlar talablarini buzish holatlari uchun tadbirkorlik sub'ektlariga javobgarlik choralarini qo'llash taqiqlanadi. Hujjatda joriy yilning 1 iyulidan boshlab qurilish materiallari sanoati, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoatida faoliyat olib borayotgan kichik korxonalar xodimlarining yillik o'rtacha soni ikki barobarga oshirilib, ikki yuz nafargacha bo'lishi ham belgilangan.

Bundan tashqari, 2015-yilning 1-yanvarigacha bo'lgan muddatda 19 turdagi litsenziyalanadigan faoliyat turlarini rasmiylashtirishda "yagona darcha" tamoyilini qonun hujjatlari darajasida joriy etish ko'zda tutilgan edi. Shu bilan birga, 2015 yildan boshlab tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan litsenziya kelishuvlari shartlarini bajarish bo'yicha davriy hisobotlar elektron shaklda taqdim etila boshlandi. Tadbirkorlik sub'ektlari eng ko'p foydalanadigan 23 turdagi davlat xizmatlari Interfaol davlat xizmatlari yagona portali orqali elektron shaklga o'tkazildi.

Bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2015-yil 21-dekabrda mamlakatimizda korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish, aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investor va menejerlarni keng jalb etish, korporativ boshqaruvda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashda, sifatli, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish hamda uni tashqi bozorlarga olib chiqishda ularning faol ishtirok

etishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek aksiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitallarida davlat aktivlari va ulushlarini qisqartirish hisobidan iqtisodiyotda davlatning ishtirokini tubdan kamaytirish maqsadida “Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №PQ-2454-sonli Qarori qabul qilindi. Bu qabul qilingan Qarorga ko‘ra, aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalida xorijiy investorlarning ulushi 15 foizdan kam bo‘lmasligi belgilandi, hamda o‘z ustav kapitallariga belgilangan muddatlarda xorijiy investorlarning 15 foizdan kam bo‘lmagan ulushi jalb qilinishini ta‘minlamagan aksiyadorlik jamiyatlari, soliq imtiyozlari va preferensiyalar berishdan kelib chiqadigan barcha oqibatlarni hisobga olgan holda, ular aksiyadorlik jamiyatlari reyestridan chiqariladi va boshqa tashkiliy-huquqiy shakllarga o‘zgartiriladigan bo‘ldi. 2016 yilning 1 iyulidan boshlab yangi tashkil etiladigan aksiyadorlik jamiyatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutiladigan holatlardan tashqari, faqat xorijiy investorning ustav kapitalidagi ishtiroki ulushi 15 foizdan kam bo‘lmagan taqdirdagina tashkil qilinishi mumkin.

Respublikamizda investitsion siyosatni amalga oshirish maqsadida har yili investitsion dastur qabul qilinadi. Jumladan, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, ustuvor tarmoqlarga investitsiyalar kiritish, korxonalarining investitsion faoliyatini jadallashtirish, modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishga xorijiy investitsiyalarni, eng avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni keng jalb qilish, ulardan samarali foydalanish, yangi ish o‘rinlari yaratish va shular asosida respublikamiz iqtisodiyotini barqaror va bir maromda rivojlantirishni ta‘minlashga qaratilgan “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi Prezident Qarori qabul qilindi.

Bundan tashqari O‘zbekistonda investitsiya iqlimini yanada jozibadorligini oshirish maqsadida, 2017-yil 31-martda O‘zbekiston Respublikasining investitsiya salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, investitsiya muhitini yanada

takomillashtirish, yillik investitsiya dasturlarini sifatli ishlab chiqish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish, xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumatlarning moliya institutlari, yetakchi chet el kompaniyalari va bank tuzilmalari bilan hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, jalb etiladigan chet el investitsiyalari samaradorligini oshirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4996-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi yagona davlat investitsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirishni muvofiqlashtirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun mas‘ul vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Fikrimizcha, yuqoridagi xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyot tarmoqlariga jalb etish uchun yaratilgan me‘yoriy-huquqiy asoslar mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy hamda ichki investitsiyalar ko‘lamini yanada ortishiga xizmat qiladi va davomli hamda barqaror iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biri bo‘ladi desak, also mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

### **I bob bo‘yicha xulosa**

Mamlakatda iqtisodiyot rivojlangani sari investitsiya faoliyati ham bunga to‘g‘ri proporsional ravishda rivojlanadi. Aholi hamda xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar o‘zida jamg‘arilgan daromadlarini foyda olish maqsadida investitsiyaga yo‘naltirishadi. Buning natijasida iqtisodiy o‘shish jadallashadi hamda o‘sha hududda yaratilgan mahsulot hajmi ortib boradi.

Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga jalb etish strategiyasi bo‘ljak chet ellik investorlarning manfaatlarini hamda milliy iqtisodiyotga zarar keltirmagan holda ularni qondirish imkoniyatlarini o‘rganib chiqishga asoslanadi. Buning uchun bir tomondan, iqtisodiyotni tarkiban qayta qurishga qaratilgan bir qator aniq loyihalarni amalga oshirish zarur bo‘ladi va ikkinchi tomondan, ichki investitsiya resurslari cheklangan bir sharoitda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati

juda yuqori baholanadi. Shuning uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlangan mamlakatlar o'z iqtisodiyotini rivojlantirishda iloji boricha ko'roq xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga harakat qiladi. Chunki rivojlanayotgan davlatlar o'z iqtisodiyotini rivojlantirishda o'z ichki mablag'lari bilan strategik maqsadlarni amalga oshira olmaydi. Bu esa albatta xorijiy investitsiyalarni talab qiladi. Shuning uchun bugungi kunda har bir rivojlanayotgan davlatlar investitsiya muhitini yaxshilashda qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda, ya'ni bunda mamlakatlar investitsiya riskini kamaytirishda alohida investitsiya siyosati ishlab chiqmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotimizga jalb etish va ular yordamida tashkil etiladigan korxonalarining faoliyatini yo'lga qo'yish yuqorida aytib o'tilgan dolzarb vazifalarning yechimini izlash yo'lida qilinadigan muhim ishlar jumlasiga kiradi.

Mamlakatimizning barqaror iqtisodiy o'sishini, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini mustahkamlash va kengaytirishni, milliy iqtisodiyotimizni jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalanashuvini ta'minlashga, tadbirkorlik sub'ektlari hamda investorlarga zarur kafolatlarni yaratib berishga xizmat qiluvchi muhim loyihalarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, zarur normativ-huquqiy bazaning yaratilishi kutilgan natijalarni bermoqda.

## **II BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT TARMOQLARIGA XORIJIY INVESTITSIYA- LARNING JALB QILISHNI AMALDAGI HOLATI TAHLILI**

### **2.1. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning amaldagi holati tahlili**

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan investitsion siyosatning maqsadi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining manfaatdorligini oshirish, moliyalashtirish manbalari tuzilmasini takomillashtirish va xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar tashkil qilish asosida mamlakatni taraqqiy ettirishdan iborat. Samarali investitsion siyosat, avvalo, investitsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Investitsion siyosat milliy va xorijiy investorlarning xo'jalik faoliyatini yuritishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi kerak. Bunda korxonalar va aholining investitsiya faolligini rag'batlantirish hamda respublika iqtisodiyotiga xorijiy kapitalni keng jalb qilishga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar etakchi rol o'ynaydi, chunki investitsiya orqali korxonalarining kapital jamg'arilishiga, natijada mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy o'sishga erishiladi. Ayniqsa xorijiy investitsiyalar respublika mintaqalari iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, ularning iqtisodiy o'sishida, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishda, bozor islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Iqtisodiy o'sish to'g'ridan-to'g'ri jamg'armalar hamda ularni investitsiyalarga yo'naltirilishiga, ishlab chiqarishni tashkil etish va xizmat ko'rsatishni rivojlanishiga ma'lum ma'noda bog'liqdir.


Iqtisodiy o'sishga tarixiy jihatdan yondashilganda, u bir hil sur'atlarda va bir tekis bormaydi. Tarixda iqtisodiy o'sish suratlarining jadallashish, jiddiy pasayish va hatto cheklanish davrlari ma'lum. Agar katta tarixiy bosqichlar olib qaraladigan

bo'lsa, jahon va milliy iqtisodiyotda, barqaror iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarishning har tomonlama taraqqiyot manzarasi hosil bo'ladi. Shu bilan birga iqtisodiy o'sish nafaqat miqdor, balki muayyan sifat o'zgarishlari shaklida ham namoyon bo'ladi. Shunday ekan iqtisodiy o'sish bevosita yalpi milliy mahsulot miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatining takomillashuvida ifodalanadi.

Mamlakatimizda investitsion siyosat islohotlarning dastlabki bosqichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan edi. Shu maqsadda har yili Davlat investitsiya dasturlari ishlab chiqilib, ular amalga oshirilmoqda. Mazkur dasturlarga kiritilgan loyihalarning amalga oshirilishi natijasida mamlakat yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlarini barqarorlashtirish imkonini berdi. 2008-yilda boshlanib, hozirgacha davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham O'zbekistonda YaIMning o'sish sur'atlari 2015-yilgacha 7-8%dan pastga tushmadi.

2016-yilda O'zbekistonda YaIM 2015-yilga nisbatan 7,8 foizga o'sdi va 2017 yilga YaIMning o'sishi 2016 yilga nisbatan 7,8 foizga o'sishi prognozlashtirildi. Sanoat mahsuloti hajmlari — 6,6 foizga, qurilish-pudrat ishlari — 12,5 foizga, chakana savdo aylanmasi — 14,4 foizga, xizmatlar — 12,5 foizga o'sdi. Davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz miqdorida profitsit bilan ijro etildi. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini ta'minlandi. Inflyatsiya darajasi prognoz parametrlaridan oshmadi va 5,7 foizni tashkil etdi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va strategik maqsadlarini belgilash, O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamjamiyatdagi roli va o'rnini aniqlash imkonini berdi.

Respublikamiz iqtisodiyotida investitsiyalarning so'nggi olti yildagi o'sish sur'atlari turlicha bo'lib, bunda oldingi yillardagiga nisbatan o'sish va pasayish tendentsiyalari kuzatilmoqda.




**2.1-rasm. 2005-2016 yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi, (foizda)<sup>26</sup>.**

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2016 yilda milliy iqtisodiyotda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 49,5 trln. so'mni tashkil etdi. Investitsiyalarning umumiy hajmida markazlashgan investitsiyalar 21,1 foizni, investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 25,1 foizni tashkil etgani ham mamlakatimizda investitsiya jarayonlarining jadal faollashib borayotganini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalar manbalari va ulardan foydalanish borasida ijobiy sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Moliyalashtirish manbalari tarkibiga to'xtaladigan bo'lsak, 2016 yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmida aholi va korxonalar mablag'lari 49,4 %ni, xorijiy investitsiya va kreditlar 23,3%ni, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 11,8%ni tashkil etgan. Byudjetdan tashqari jamg'armalarning investitsiyalarning umumiy hajmidagi ulushi 2006 yildagi 6,9

<sup>26</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

%dan 2016 yilda 6,0% bo'ldi. Shu bilan birgalikda byudjet mablag'larining ulushi 12,3%dan 4,2 %ga kamaydi. Mazkur holat mamlakatimizda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyalash darajasining oshirilganligi hamda mahalliy va xorijiy tashkilotlarning investitsion jarayonlardagi ishtiroking faollashganligi bilan izohlanadi.




**2.2-rasm. Investitsiyaning o'sish sur'ati va investitsiya hajmining YaIMdagi ulushi<sup>27</sup>**

Yuqoridagi rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2012 yilda 11,7 milliard dollarga teng miqdorda yoki 2011-yildagiga qaraganda 14 foiz ko'p investitsiyalar jalb etildi. Barcha investitsiyalarning 22 foizdan ortig'ini yoki 2,5 milliard dollardan ortiqni xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ulardan 79 foizdan ortig'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Buni quyidagi 2.1.2-rasmda ko'rishimiz mumkin.

2013-yilda Investitsiya dasturini amalga oshirish doirasida mamlakatimizda 13 milliard dollar qiymatidagi kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2012-yilga nisbatan 11,3 foizga ko'pdir. O'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar umumiy

<sup>27</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

hajmining deyarli yarmini, ya'ni 47 foizini xususiy investitsiyalar – korxonalar va aholining shaxsiy mablag'lari tashkil etgani alohida e'tiborga loyiqdir.



**2.3-rasm. 2012-2016 yillarga mo'ljallangan davlat investitsiya dasturlari doirasida investitsiyalarning o'zlashtirish dinamikasi (million AQSH dollari.)<sup>28</sup>**

2014 yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 14 milliard 600 million AQSH dollarini tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yilmalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning  $\frac{3}{4}$  qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. 2014 yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 3095,2 million AQSH dollarini tashkil etilgan bo'lsa, shundan 2321,4 million AQSH dollari, ya'ni 75 foizdan ko'prog'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Demak, xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotimizga izchil kirib kelishi muhim ahamiyat kasb etadi.

2015-yilda ana shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSH dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi va o'zlashtirildi. Bu 2014-yilga nisbatan 9,5 foiz ko'p demakdir. Jami

<sup>28</sup> Magistrant tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

investitsiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortig'i xorijiy investitsiyalar bo'lib, shuning 73 foizi to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalaridir.

Milliy iqtisodiyotga 2016-yil 16,6 milliard AQSh dollari miqdorida yoki 2015 yilga nisbatan 9,6 foizga ko'p investitsiyalar yo'naltirildi. O'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 11,3 foizga o'sdi va 3,650 milliard dollardan oshib ketdi. Umumiy qiymati 5,2 milliard dollar bo'lgan 164 ta yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish yakunlandi. Jumladan, Talimarjon IESda 450 MVt quvvatli ikkita bug'-gaz turbinasi va Angren IESda ko'mir kukunidan foydalanishga mo'ljallangan 130-150 MVt quvvatli energiya bloki qurish, Jizzax viloyatidagi sement zavodi quvvatini kengaytirish, "Indorama Qo'qon tekstil" xorijiy korxonasi va "Fanteks" MCHJda yigiruv ishlarini tashkil etish, "GM O'zbekiston" aksiyadorlik jamiyatida "T-250" rusumidagi yengil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish", shu bilan birga "Sirdaryo viloyatidagi "Guliston Med Texnika" qo'shma korxonasida steril shprintslar ishlab chiqarish" va boshqa loyihalar amalga oshirilib, ishga tushirildi.

Bundan tashqari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hududiy dasturlari doirasida 2016-yilda 28 mingdan ko'p loyiha amalga oshirildi.

2015-2019-yillarda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlarining 80 dan ortiq yangi turi o'zlashtirildi. 2016-yilda Mahalliyashtirish dasturi doirasida qiymati 6145,8 milliard so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarildi va o'sish 2015-yilning shu davriga nisbatan 1,5 barobarni, import o'rnini bosish samaradorligi 2,1 milliard dollarni tashkil qildi.

2016-yilda mahalliy xomashyo resurslarini bosqichma-bosqich chuqur qayta ishlash va tayyor iste'mol mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish tarmoqlari evaziga sanoat mahsulotlarining yuqori o'sish sur'atlariga erishildi. Xususan, to'qimachilik buyumlari, kiyim va charm mahsulotlari ishlab chiqarish 111,7 foiz, oziq-ovqat mahsulotlari 110,8 foiz, farmatsevtika mahsulot va preparatlari 123,9

foiz, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlari 129,7 foiz, boshqa noruda menereal mahsulotlar 113,8 foizga oshdi.

Sanoatni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash loyihalari, shuningdek, 2015-2019-yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sarfi hajmini qisqartirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari dasturining hayotga samarali tatbiq etilishi natijasida respublika YAIMga energiya sarfini 7,4 foizga, hamda yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini esa o'tgan yilga nisbatan o'rtacha 10,6 foiz kamaytirishga erishildi.

Islohotlarning hozirgi bosqichida davlatning asosiy vazifasi iqtisodiyotga kapital qo'yish uchun qulay bo'lgan iqtisodiy-moliyaviy va tashkiliy-huquqiy sharoit yaratishdan iborat.

2016 yil 23 dekabrda qabul qilingan 2017 yilgi "Investitsiya dasturiga nazar tashlasak, respublikamiz iqtisodiyotiga kiritiladigan investitsiyalar hajmi ushbu yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga 61403,4 mlrd so'm miqdorida investitsiyalar jalb qilinishi va o'sish sur'ati 2016 yilga nisbatan 109,6 foizni tashkil qilishi rejalashtirilgan. Jami investitsiyalarning 46,9 foizi korxonalar va aholi mablag'lari hisobiga, 26,0 foizi chet el investitsiya va kreditlari hisobiga, 4,0 foizi respublika budjeti mablag'lari hisobiga, 5,7 foizi budjetdan tashqari fondlar hisobiga, 12,2 foizini esa bank kreditlari hisobiga to'g'ri kelishi kutilmoqda<sup>29</sup>.

Investitsiyalar orasida bevosita xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiy qudratini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarini zamonaviylashtirish va asosiy vositalarini yangilash, mavjud sanoat korxonalarini rekonstruksiya qilish uchun yirik kapital qo'yilmalarni safarbar qilish zaruriyati mavjud bo'lgan hozirgi davrda keng miqyosda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategik maqsadlarga qaratilgan bo'lib, u davlat tomonidan amalga oshirilayotgan siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

---

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 23 dekabrda qabul qilingan №PQ-2697-sonli "O'zbekiston Respublikasi 2017 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi Qarori asosida tayyorlandi.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etish strategiyasi bo‘lajak chet ellik investorlarning manfaatlarini hamda milliy iqtisodiyotga zarar keltirmagan holda ularning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini o‘rganishga asoslanadi. Buning uchun, bir tomondan, iqtisodiyotni tarkiban qayta qurishga qaratilgan bir qator aniq loyihalarni amalga oshirish zarur bo‘ladi va ikkinchi tomondan, ichki investitsiya resurslari cheklangan bir sharoitda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati juda yuqori baholanadi.

2005-2017 yillar oralig‘ida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida respublika budjeti mablag‘lari ulushi sezilarli darajada kamaydi. Aksincha, bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hamda budjetdan tashqari fond mablag‘lari ulishi ortib bormoqda. Korxonalar va aholi mablag‘lari esa barcha yillarda ham asosiy investitsiya hajmining katta qismini egallab kelmoqda (2.1-jadval).

## 2.1-jadval

### Mablag‘ manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi, 2017 yil<sup>30</sup>

	Jami investitsiya (foizda)	Shu jumladan mablag‘ manbalari buyicha umumiy hajmiga nisbatan foizda				
		Respubl. budjeti	Korxonalar va aholi mablag‘lari	Bank kredit. va boshqa qarz mablag‘lari	Chet el invest. va kreditlar.	Budjet. tashqari Fondlar
2005	100,0	12,2	57,4	3,8	21,7	4,8
2006	100,0	10,4	60,2	4,1	18,5	6,8
2007	100,0	9,0	59,0	5,0	22,8	6,1
2008	100,0	8,9	54,4	5,0	25,5	6,2
2009	100,0	8,1	46,9	5,2	32,2	7,6
2010	100,0	4,5	49,4	8,4	26,1	11,6
2012	100,0	5,1	50,8	11,4	21,7	11,0
2015	100,0	5,5	53,1	11,0	23,5	5,7
2016	100,0	4,2	49,4	11,8	23,3	6,0
2017*	100,0	4,0	46,9	12,2	26,0	5,7

Keyingi yillarda iqtisodiyotga yo‘naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishning markazlashgan va markazlashmagan manbalari o‘rtasidagi nisbat o‘zgargan. Xususan, 2016 yilda markazlashgan investitsiyalar jami hajmining 15706,6 mlrd.so‘mni yoki 25,6 foizini, markazlashmagan investitsiyalar

<sup>30</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

esa 45696,7 mlrd.soʻmni yoki 74,4 foizini tashkil etdi<sup>31</sup>.

Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishda soʻnggi yillarda xorijiy investitsiya va kreditlarning roli oshib bormoqda. Jami investitsiyalar tarkibida korxonalar va aholi mablagʻlari koʻp ulushni tashkil qilishi bu iqtisodiyot uchun ijobiy holat hisoblanadi. Va aksincha, agar umumiy investitsiyalar hajmida respublika budjetidan ajratilgan mablagʻlar ulushi yuqori boʻlsa, unda mamlakat iqtisodiyoti toʻlaligicha davlat budjetiga bogʻliq deb xulosa chiqarish mumkin.

## 2.2-jadval

### 2010-2016 yillarda investitsiyalarning mintaqalar boʻyicha taqsimlanishi, (jamiga nisbatan foizda)<sup>32</sup>

Mintaqalar	2010 yil	2015 yil	2016 yil
<b>Oʻzbekiston</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	4,5	14,1	7,5
Andijon	1,8	4,0	3,8
Buxoro	4,1	9,5	11,8
Jizzax	0,6	2,5	2,5
Qashqadaryo	8,4	12,8	12,8
Navoiy	9,5	4,2	5,7
Namangan	2,2	4,7	4,8
Samarqand	2,3	6,8	6,8
Surxondaryo	1,1	3,8	3,8
Sirdaryo	1,1	2,5	2,2
Toshkent	8,4	9,6	7,7
Fargʻona	2,5	5,1	4,7
Xorazm	1,3	3,4	2,9
Toshkent shahri	41,9	16,6	21,7

Shuningdek, xorijiy investitsiyalarning mintaqalar boʻyicha taqsimlanishida ham hududiy tafovutlar mavjud. 2010 - 2016 yillarda respublikamizga kiritilgan investitsiyalarning mintaqalar boʻyicha qay tarzda taqsimlanganligi quyidagi jadvalda oʻz aksini topgan. 2016 yilda jami investitsiyalarning 21,7 foizi Toshkent shahri hissasiga toʻgʻri kelsa, Buxoro viloyatiga (11,8%), Qashqadaryo viloyatiga 12,8% toʻgʻri kelgan boʻlsa, Sirdaryo (2,2%), Jizzax (2,5%), Namangan (4,8%), Xorazm (2,9%) viloyatlarida juda past.

<sup>31</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 23 dekabrda qabul qilingan №PQ-2697 sonli Qarori.

<sup>32</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Davlat Statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Xorijiy kapitalning milliy iqtisodiyotga kirib kelishi tashqi iqtisodiy munosobatlarning erkinlashtirilishi va davlatning tashqi savdo siyosati mustaqillik yillarida tashqi savdo hajmiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatdi. Keyingi yillarda tashqi savdo aylanmasi tarkibi takomillashmoqda. Shuningdek, tashqi savdo saldosida ijobiy natijaga erishilmoqda. Bu iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarning ishlab chiqarishning tovar tarkibini takomillashtirishga olib kelayotganligi bilan izohlanadi. Boshqacha qilib aytganda, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini qoplovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish jarayoni tashqi savdo tarkibini ijobiy tomonga o'zgartirmoqda.

Respublika hukumatining bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb etish va qo'shma korxonalarni rivojlantirishga qaratilgan siyosati natijasida mustaqillik yillarida 14 mlrd. AQSh dollaridan ko'proq xorijiy investitsiyalar va kreditlar milliy iqtisodiyotga jalb qilindi.

Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilishning muhim dastaklaridan bo'lgan Davlat Investitsiya dasturi hisoblanadi. Respublika hukumati tomonidan iqtisodiyotni tubdan va tarkiban o'zgartirishni ta'minlash, korxonalar va tashkilotlarning investitsiya faoliyatini kuchaytirish, shuningdek, iqtisodiyotning ustuvor sohalariga xorijiy investitsiyalarni keng ko'lamda jalb etish maqsadida har yili ushbu dastur bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar belgilab olinadi.

O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi uning investitsiya siyosati vositasi sifatida iqtisodiyotni investitsiyalashda juda muhim hujjat hisoblanadi. Bu dastur davlat kafolati ostida jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar va kreditlari ishtirokida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ustuvor investitsiya loyihalari ro'yxatidan iborat. Bugungi kunda 40 dan ortiq mamlakat investorlari O'zbekiston Davlat Investitsiya dasturida ishtirok etmoqda<sup>33</sup>.

Hozirgi kunda esa mamlakatimizda xorijiy investitsiyalar ishtirokida deyarli 200 ta investitsiya loyihasi ishlab chiqilgan va amaliyotda joriy etilmoqda. Ularning hajmi 10 mlrd. AQSh dollaridan ortiqdir. Ayni paytda O'zbekiston

---

<sup>33</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 23 dekabrda qabul qilingan №PQ-2697-sonli "O'zbekiston Respublikasi 2017 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi Qarori.

investitsiya sohasida sheriklar doirasini kengaytira borib, ularni O‘zbekiston iqtisodiyotini tarkiban o‘zgarishiga, korxonalar hamda ishlab chiqarishlarni texnika bilan qayta qurollantirish va yangilashga jalb etmoqda.

Alohida ta’kidlash o‘rinliki, milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish uchun investitsiyalashda xalqaro moliyaviy muassasalar mablag‘larini jalb etish va ularning Davlat Investitsiya dasturidagi ishtirokini ta’minlashga erishilmoqda. Bunda xalqaro va nufuzli banklar respublikamizda kredit liniyalarini ochish orqali mamlakatda kichik va o‘rta tadbirkorlikni kichik qo‘yilmalar bilan moliyalashtirish orqali ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ishtirokini ta’minlash asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Davlat Investitsiya dasturining amalga oshirilishi yuzasidan nazorat O‘zbekiston Respublikami Vazirlar Mahkamasi tomonidan olib boriladi.

Xorijiy investorlar bilan qo‘shma korxonalar tashkil qilish jahon bozorida raqobatlasha oladigan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport qilish, yuqori texnologiya va ilm talab qiluvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, eksportning intellektual mulk ob’ektlari litsenziyalarini, injiniring va lizing sohalarida xizmatlar ko‘rsatish kabi turlarini rivojlantirish, ilmiy ishlanmalarga, xususan, amaliy fan va texnologiyalar transferti sohasidagi ilmiy ishlanmalarga bozor yo‘nalishini qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini ishlab chiqish, investitsiya jarayonini davlat tomonidan va tijorat usulida qo‘llab-quvvatlashning eng maqbul yo‘llarini belgilab olish hamda ilmiy-texnik ishlanmalarni tijorat ahamiyatiga molik natijalar darajasiga yetkazish, o‘zbek olimlari va mutaxassislarining chet eldagi institutlar, tashkilotlar va firmalar bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish, yuqori darajali marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, xorijiy bozorlar kon’yunkturasini, qo‘shma korxonalar tashkil etish kabilar bo‘yicha hamkorlar qidirish yuzasidan tahliliy ma’lumotlarni o‘rganish imkoniyatini beradi.

Albatta, qo‘shma korxonalarining ko‘payishi xorijiy investitsiya oqimining kuchayishidan va mamlakatda ishlab chiqarish imkoniyatlari kengayishidan dalolat beradi. Shunga ko‘ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyati o‘tkazilayotgan investitsiya siyosatining samaradorligini ko‘rsatadi. Bugungi

kunda mavjud 4000 tadan ortiq qo'shma korxonalarining 80 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'shma korxonalar faoliyatining samaradorligini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichlaridan bu ularning ishlab chiqarish hajmi, eksport va import ko'rsatkichlaridir<sup>34</sup>.

Mintaqalarda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatida keskin o'zgarishlar ro'y berdi, investitsion resurslarni jalb etishda mintaqalar bo'yicha notekislik va uzluksizlik mavjud.

Jami eksportda mintaqalarning ulushi 2008-2016 yillarda salmoqli darajada o'zgargan. Masalan, tahlil yillarida Andijon viloyati va Toshkent shahrining jami eksportdagi ulushi sezilarli darajada oshgan. Namangan va Buxoro viloyatlarida ham o'sish tendensiyasi kuzatilgan bo'lsada, Navoiy, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida aksincha pasayish salmog'i kuzatilgan. Bu o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatgan omillarning asosiylari eksport bozorlarining yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi, import o'rnini qoplovchi yuqori darajada ixtisoslashuv, korxonalar eksport quvvatlaridan yetarli darajada foydalanmasligi hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining import hajmi bo'yicha mintaqalarning salmog'i ham tahlil davrida o'zgargan. Xususan, shu yillarda Andijon, Qashqadaryo va Toshkent shahrining jami importdagi ulushi ortib, unga qarama-qarshi o'laroq, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarining salmog'i kamaygan. Bu tendensiyalar import o'rnini qoplovchi sanoatlashtirish strategiyasida hududlarning o'rni o'zgarayotganligini ifodalaydi.

O'zbekiston iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Buning negizini mahalliy xom-ashyoni qayta ishlash va jahon bozoridagi keskin raqobatga bardosh bera oladigan mahsulotlar tayyorlashga asoslangan sanoat tarmoqlarining yetakchi o'ringa chiqishi va xizmat ko'rsatish sohalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi tashkil qiladi.

Mustaqillik yillarida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 11 foizdan 25 foizga, xizmat ko'rsatish sohalarining ulushi esa 18 foizdan 42 foizga

---

<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining ma'lumotlari.

yoki 2 barobardan ziyod oshdi. Ushbu tarkibiy o'zgarishlar albatta keng miqyosdagi investitsion mablag'larni talab etadi.

Binobarin, respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

## **2.2. O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy-moliyaviy shart-sharoitlar tahlili**

O'zbekistonda investitsion muhitning muhim ahamiyat kasb etishi hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan investitsiya siyosatida yaqqol ko'rinadi. Lekin, O'zbekistonning ko'plab murakkab moliyaviy-iqtisodiy muammolarini hal etish uchun investitsion muhit haqidagi masalalarning muhim moliyaviy jihatlarini o'rganish va yoritish talab qilinadi. Bu esa milliy iqtisodiyotimizga keng miqyosdagi investitsiyalar oqimini olib kelishi muqarrar. Mavjud quvvatlar yuklanishini oshirish YaIMni 8-12 %gacha oshirishga imkon beradi. To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari oqimi kapitallarni mamlakatga kirib kelishini bevosita ta'minlaydi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda qulay investitsiyaviy muhit shakllantirildi, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonun yo'li bilan keng ko'lamdagi imtiyozlar, afzalliklar va kafolatlar tizimi belgilandi. Natijada respublikada iqtisodiyotning etakchi tarmoqlari va sohalarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida 4,2 mingtadan ko'proq korxonalar tashkil qilindi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Har yili 3,0 milliarddan ko'proq asosan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilmoqda, mamlakat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiya umumiy hajmining 26,6 foizdan ko'prog'i

ularning hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa xorijiy investorlarning respublika iqtisodiyoti barqarorligi va pishiq-puxtaligiga, uni rivojlantirish istiqbollariga qiziqishi hamda ishonchi ortib borayotganligidan yaqqol dalolat beradi.

Shu bilan birga, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganligi, jahon va mintaqaviy investitsiya bozorlarida raqobat kuchayib borayotganligi mamlakatda yana ham qulayroq investitsiya muhitini yaratish, ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish, shuningdek, xorijiy investorlar bilan ishlashdagi mavjud byurokratik g'ovlar va to'siqlarni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga davlat va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarga yo'l qo'ymaslik borasida qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishini taqozo etmoqda.

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda erkin iqtisodiy zonalar muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilinishi mazkur davlatlarning taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan va bunda erkin iqtisodiy zonalar muhim ahamiyat kasb etgan.

Mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish va ular faoliyatiga doir munosabatlar "Erkin iqtisodiy hududlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 oktyabrdagi PF-4853-sonli "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish tartibi, uning turlari, mazkur hududlar ishtirokchilariga qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalar berish mexanizmini o'zida aks ettiradi. Bu Farmonga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi, "Angren" va "Jizzax" maxsus industrial zonalarini nomini birxillashtirish maqsadida ularni "Navoiy", "Angren" va "Jizzax" erkin iqtisodiy zonalar deb yuritiladigan bo'ldi.

Bundan tashqari ushbu Farmonga binoan, erkin iqtisodiy zonalar hududida amalda qo‘llanilayotgan soliq va bojxona rejimlarini bixillashtirish hamda ushbu zonalar ishtirokchilarining quyidagilardan:

- yer solig‘i, daromad solig‘i, yuridik shaxslar mulk solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi, shuningdek, Respublika yo‘l jamg‘armasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalaridan;

- mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan va loyihalarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha chetdan keltiriladigan qurilish materiallarini bojxona to‘lovlaridan (bojxonada rasmiylashtirish yig‘imlari bundan mustasno);

- o‘zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun chetdan keltiriladigan asbob-uskunalar, xom ashyo, materiallar va butlovchi buyumlarni bojxona to‘lovlaridan (bojxonada rasmiylashtirish yig‘imlari bundan mustasno) ozod etiladi.

Yuqoridagi imtiyoz va preferensiyalar hududlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmiga qarab 3 yildan 10 yil muddatgacha, jumladan:

- 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha hajmdagi investitsiyalar - 3 yil muddatga;

- 3 million AQSh dollaridan 5 million AQSh dollarigacha hajmdagi investitsiyalar - 5 yil muddatga;

- 5 million AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha hajmdagi investitsiyalar - 7 yil muddatga;

- 10 million va undan ko‘p AQSh dollari hajmidagi investitsiyalar so‘nggi 5 yilda amaldagi stavkalardan 50 foiz kam hajmdagi daromad solig‘i va yagona soliq to‘lovi stavkalari qo‘llangan holda - 10 yil muddatga beriladi<sup>35</sup>.

---

<sup>35</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4853-sonli “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

Yuqoridagi investitsiyalar uchun yaratilgan kafolatlar, imtiyozlar tizimi mamlakat hududiga yoʻnaltirilgan xorijiy investitsiyalar hajmini oʻsishiga, iqtisodiyotni barqaror rivojlanishiga va milliy iqtisodiyotni xalqaro iqtisodiyotga integratsiyalashuviga asos boʻlib xizmat qiladi desak, aslo mubolagʻa boʻlmaydi.

2012 yil 10 aprel kuni “Toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini ragʻbatlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni imzolandi.

Mazkur hujjat yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga toʻgʻridan-toʻgʻri qoʻyilmalar kiritayotgan xorijiy investorlar uchun maksimal darajada qulay investitsiya muhitini yaratish, respublika mintaqalariga xorijiy sarmoyalar va zamonaviy texnologiyalar jalb etilishi ragʻbatlantirilishini kuchaytirish, xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun kafolatlar va imtiyozlar tizimini yanada mustahkamlash maqsadida qabul qilindi.

Unga koʻra “xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSh dollaridan kam boʻlmagan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat roʻyxatidan oʻtgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligida oʻzgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi, qoʻshilgan qiymat soligʻi (tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish aylanmasi), mol-mulk soligʻi, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soligʻi, yagona ijtimoiy toʻlov, yagona soliq toʻlovi, shuningdek, Respublika yoʻl jamgʻarmasiga hamda Taʼlim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal taʼmirlash va jihozlash jamgʻarmasiga majburiy ajratmalar toʻlashning mazkur korxonalar davlat roʻyxatidan oʻtish sanasida amal qilgan meʼyorlari va qoidalarini qoʻllashga haqlidirlar”<sup>36</sup>.

Yangi tartibga muvofiq, qiymati 50 million AQSh dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz boʻlgan investitsiya loyihalari doirasida,

---

<sup>36</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Toʻgʻridan-toʻgʻri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ragʻbatlantirish borasidagi qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” 2012 yil 12 apreldagi Farmoni.

ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish byudjet mablag'lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-son Farmoni bilan belgilangan soliq imtiyozlari 2012 yilning II choragidan boshlab quyidagi iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida faoliyat yuritayotgan korxonalariga tatbiq etiladi.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan imtiyozlar joriy etiladigan iqtisodiyot tarmoqlariga quyidagilar kiradi:

1. Radioelektron sanoati buyumlari hamda kompyuter va hisoblash texnikasi butlovchi buyumlarini ishlab chiqarish.

2.Yengil sanoat:

- tayyor ip gazlama, jun gazlama va aralash gazlamalar, shuningdek trikotaj gazlama ishlab chiqarish;

- tayyor tikuvchilik, trikotaj, paypoq mahsulotlari va to'qimachilik galantereyasi ishlab chiqarish;

- tabiiy terilar ishlab chiqarish, ko'n-galantereya sanoati, poyabzal sanoati.

3. Ipakchilik sanoati:

- shoyi gazlamalar va ipakdan tayyor buyumlar ishlab chiqarish.

4.Qurilish materiallari sanoati:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 24 martdagi PF-3586-sonli Farmoni 1a-ilovasida ko'rsatilgan qurilish materiallarining yangi turlarini ishlab chiqarish.

5.Parranda go'shti va tuxumni sanoat miqyosida etishtirish.

6.Oziq-ovqat sanoati:

- mahalliy xom ashyodan sanoat miqyosida qayta ishlangan tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (alkogolli, alkogolsiz ichimliklar va tamaki mahsulotlari bundan mustasno).

7.Go'sht-sut sanoati:

- go'sht va sut mahsulotlarining tayyor turlari, pishloq va sariyog', shuningdek hayvonlarning ichki organlaridan qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqarish.

8. Baliq va baliq mahsulotlarini qayta ishlash hamda konservalash.

9. Kimyo sanoati.

10. Neft-kimyo sanoati.

11. Tibbiyot sanoati, shuningdek veterinariya uchun dori vositalarini ishlab chiqarish.

12. Qadoqlash materiallarini ishlab chiqarish.

13. Muqobil energiya manbalari negizida elektr stantsiyalari qurish.

14. Ko'mir sanoati:

- ko'mirni boyitish;
- ko'mir briketlarini ishlab chiqarish;
- slanets sanoati.

15. Ishlab chiqarishga mo'ljallangan elektroferrosplov va metall buyumlarni ishlab chiqarish.

16. Mashinasozlik va metallga ishlov berish:

- mashinasozlik;
- traktor va qishloq xo'jalik mashinasozligi;
- qurilish, yo'l va kommunal mashinasozlik;
- yengil va oziq-ovqat sanoati hamda maishiy asboblarning mashinasozligi;

17. Stanoksozlik va asbobsozlik sanoati.

18. Shisha va chinni-fayans sanoati

18. Mikrobiologiya sanoati.

18. O'yinchoqlar ishlab chiqarish.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilishda Vazirlar Mahkamasi muvofiqlashtiruvchi organ vazifasini bajaradi. Shuningdek, mazkur jarayonda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Davlat mulk qo'mitasi o'z vakolatlari doirasida faoliyat yuritishadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy eksporter korxonalarini qo'llab-quvvatlash va eksport mahsulotlar nomenklaturasini yanada kengaytirish maqsadida mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 2010 yilning 26 martida "Eksport qiluvchi korxonalarini rag'batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga etkazib berishni kengaytirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror qabul qilindi va bu boradagi mavjud kamchiliklarga xolisona baho berildi.

Qarorda respublikada eksport qiluvchi korxonalarga beriladigan bir qancha soliq va bojxona imtiyozlari hamda afzalliklari tizimi yaratilganligi ta'kidlab o'tilgandi. Unga asosan, maxsus ekspert komissiyasi tashkil etilib, ishlab chiqargan mahsulotlarini eksportga chiqarish bilan shug'ullanmayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini o'rganish va keyinchalik eksport zaxiralarini yaratish ishlari tashkil etildi hamda har bir soha, tarmoq, hudud bo'yicha eksportga etkazib beriladigan mahsulotlar hajmi va turini ko'paytirish borasidagi ishlarning holatini tubdan yaxshilash bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq, tovarlarni chet el valyutasida eksport qilish (qimmatbaho metallar bundan mustasno) oborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi. Eksport qiluvchi korxonalar (xomashyo tovarlarini sotish bundan mustasno) uchun foyda va mulk solig'i stavkasi umumiy sotish hajmida o'zi ishlab chiqargan va erkin almashtiriladigan valyutaga sotilgan tovar (ish, xizmat)lar eksportidagi ulushiga bog'liq holda kamaytiriladi. 2018 yilning 1 yanvariga qadar respublikadagi o'z mahsuloti hajmining, jumladan, yarim tayyor mahsulotlarning (kalava, gazlama, trikotaj gazlama va paxta yigirish chiqindilari) 80 foizi va undan ortiqini erkin almashtiriladigan valyutaga sotadigan to'qimachilik sanoat korxonalari mulk solig'i to'lashdan ozod qilingan.

Tovar (ish, xizmat)larning barcha turlariga eksport bojxona bojlari va spetsifik tovarlardan tashqari boshqa tovar (ish, xizmat)lar eksportini litsenziyalash bekor qilingan.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar o'zi ishlab chiqargan tovar (ish, xizmat)larni eksport qilishdan tushadigan valyuta tushumining 50 foizini majburiy sotishdan ozod etilgan. Bundan tashqari, soliq va bojxona tizimi bo'yicha yana bir qancha imtiyozlar yaratilgan.

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>2014</b>	<b>2015</b>	<b>2016</b>
Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	mlrd.so'm	6818,1	8182,7	10829,2
Xorijiy investitsiyalarining umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi	%	20,2	20,1	21,9
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	mlrd.so'm	5339,1	6273,1	7569,0
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi	%	15,8	15,4	15,3
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning xorijiy investitsiyalar umumiy hajmidagi ulushi	%	78,3	76,7	69,9

#### **2.4-rasm. Chet el investitsiyalari va kreditlarini o'zlashtirish dinamikasi<sup>37</sup>**

Mamlakatimizda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish maqsadida hududiy investitsiya dasturlari amalga oshirilib kelinmoqda. Mazkur investitsiya dasturlari doirasida bir qator loyihalarni amalga oshirish uchun to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilmoqda. Mazkur investitsiyalarni jalb etilishi milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishga hamda sanoat tarmoqlarini texnik-texnologik jihatdan yangilash jarayoniga sharoit yaratdi. Buni quyidagi 2.4-rasm ma'ulotlaridan ko'rishimiz mumkin.

Tashqi iqtisodiy aloqalar investitsiyalar va savdo vazirligining 2016 yil hisobot davrida ushbu loyihalarning o'z vaqtida amalga oshirilishi borasida doimiy davlat monitoring olib borildi. Xorijiy investitsiyalarning asosiy o'zlashgan qismi neftgaz sanoatiga (36,0%), energetikaga (13,9%), transport infrastrukturasi (9,0%), kommunikatsiya va axborotlashtirishga (8,1%), moliya sektoriga (5,9%), yo'l infrastrukturasi (5,3%), qishloq va suv xo'jaligiga (4,5%), ichimlik suvi bilan ta'minlashga (4,0%), yengil sanoatga (3,7%), qurilish materiallarini ishlab chiqarish va qurilishga (3,0%) hamda boshqalarga to'g'ri keldi.

<sup>37</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Hisobot davrida Investitsiya dasturi doirasida respublikamiz iqtisodiga 20 dan ortiq xorijiy davlatlar jumladan, XXR, Rossiya, Germaniya, Singapur, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va boshqa shu kabi davlatlarning to`g`ridan-to`g`ri horijiy investitsiyalari jalb qilindi. Shu bilan birga Osiyo Tarraqqiyot Banki, Jahon Banki, Islom Tarraqqiyot Banki, Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya va shu kabi boshqa xalqaro moliyaviy institutlar va donor-mamlakatlarning imtiyozli kredit mablag`lari jalb etildi.

Ko`rsatkichlar	2016	
	mlrd.so`m	yakunga nisbatan foizda
<b>Ishlab chiqarish sanoati – jami</b>	<b>1400,1</b>	<b>100,0</b>
oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	331,4	23,7
to`qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish	324,8	23,2
teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	20,6	1,5
yog`och va po`kak buyumlar, qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish	3,8	0,3
yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,1	0,0
koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish		
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	0,1	0,0
asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	96,6	6,9
boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	45,1	3,2
metallurgiya sanoati	162,9	11,6
tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	208,6	14,9
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	37,6	2,7
elektr uskunalar ishlab chiqarish	100,7	7,2
avtotransport vositalari va boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish	0,2	0,0
mebel ishlab chiqarish	8,9	0,6


### **2.5-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar tuzilmasi<sup>38</sup>**

2.5-rasm ma`lumotlaridan ko`rishimiz mumkinki, 2016 yilda mamlakatimizda iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ishlab chiqarish sanoatiga xorijiy investitsiyalar hajmi 1400,1 mlrd. so`mni tashkil etgan, bunda jalb etilgan investitsiyalar bo`yicha yuqori ulushni oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish hamda to`qimachilik mahsulotlari va kiyim

<sup>38</sup> O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

ishlab chiqarish sohasiga tegishlidir. Mazkur holat mamlakatimizda ushbu sohalar taraqqiy etganligini bildiradi.

2017 yilda “Investitsiya dasturi” asosida Hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobiga 79 loyiha bo‘yicha 1,854 milliard dollar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobiga 120 loyiha bo‘yicha 2,65 milliard dollar o‘zlashtirish ko‘zda tutilgan. Xorijiy investitsiyalarning katta qismi — 37 loyiha bo‘yicha 2,47 milliard dollar yoqilg‘i-energetika sohasida o‘zlashtirilishi rejalashtirilgan. Xorij kompaniyalari neft-gaz sohasidagi 20 loyiha bo‘yicha 1,97 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kiritishi mo‘ljallangan.



**2.6-rasm. Xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb etish dinamikasi, (mlrd.dollar)<sup>39</sup>**

Xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirish borasidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi tufayli, joriy yilda 3,65 mlrd. dollarlik xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi, o‘sish sur‘ati o‘tgan yilga nisbatan 11,3%ni tashkil qildi. Bu mablag‘larning 2,5 mlrd. dollardan ortig‘i to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy

<sup>39</sup> O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

investitsiyalardir. Natijada o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmida xorijiy sarmoyalar ulushi 20,1%dan 21,9%ga etdi.

Shuni nazarda tutish kerakki, o'tgan yillar mobaynida mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning huquqiy asoslari, infratuzilmasi yaratilibgina qolmay, iqtisodiy o'sishdan yuksalish sari mustahkam zamin yaratildi. Mamlakatni jadal isloh etish va modernizatsiya qilish hamda mulkiy munosabatlarni takomillashtirish natijasida ko'plab korxonalar ishga tushirilishi chinakam industrial qudrat vujudga kelayotganligini bildiradi. Ularning iqtisodiy samarasi darhol ko'rinmasligi mumkin. Chunki, bunday sharoitda iqtisodiy samara kelgusi davrga ko'chadi va o'zining butun bo'yi-basti bilan yaqin kelajakda namoyon bo'ladi. Buni jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasi tasdiqlab turibdi.

Xususan, 2017 yilda "Lukoil" umumiy qiymati 8 milliard dollardan ortiq bo'lgan ikkita MTBni amalga oshirish uchun 1,217 milliard dollar kiritadi, "Gas Project Development Central Asia" (GPD, Gazprom International sho'bas) esa umumiy qiymati 1,3 milliard dollarga yaqin bo'lgan ikki loyiha — Ustyurt va Surxondaryo viloyatida gaz konlarini ishga tushirishga kirishadi. 2017 yilga rejalashtirilgan investitsiya hajmi 160 million dollarni tashkil etadi. Xalqaro moliya institutlarining xorijiy kreditlari hisobiga energetika sohasida 17 loyiha bo'yicha 506,7 million dollar o'zlashtirish rejalashtirilgan. Yaponiyaning "Mitsubishi Corporation" va "Mitsubishi Hitachi Power Systems Ltd" kompaniyalari umumiy qiymati 1,5 milliard dollarga yaqin bo'lgan ikki loyiha — Namangan viloyatida quvvati 900 MVt bo'lgan To'raqo'rg'on IES qurilishi va Navoiy IESda quvvati 450 MVt bo'lgan bug'-gaz qurilmasini o'rnatishga kirishadi. Shuningdek, Xitoyning "Zhuhai Singyes Green Building Technology" kompaniyasi Samarqand viloyatida quyosh elektrostantsiyasi qurishni boshlaydi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar – iqtisodiyotda mulkchilik munosabatlarini takomillashtirishning va iqtisodiy o'sishning moddiy asosidir. Bu maqsadlarda ulardan foydalanishda ham omilkorlik va xushyorlik talab etiladi.

## **II bob bo'yicha xulosa**

Xorijiy investitsiyalar respublika mintaqalari iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishda, bozor islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim o'rin tutadi.

Investitsiyalar orasida bevosita xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiy qudratini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarini zamonaviylashtirish va asosiy vositalarini yangilash, mavjud sanoat korxonalarini rekonstruksiya qilish uchun yirik kapital qo'yilmalarni safarbar qilish zaruriyati mavjud bo'lgan hozirgi davrda keng miqyosda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategik maqsadlarga qaratilgan bo'lib, u davlat tomonidan amalga oshirilayotgan siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishda so'nggi yillarda xorijiy investitsiya va kreditlarning roli oshib bormoqda. Jami investitsiyalar tarkibida korxonalar va aholi mablag'lari ko'p ulushni tashkil qilishi bu iqtisodiyot uchun ijobiy holat hisoblanadi. Va aksincha, agar umumiy investitsiyalar hajmida respublika budjetidan ajratilgan mablag'lar ulushi yuqori bo'lsa, unda mamlakat iqtisodiyoti to'raligicha davlat budjetiga bog'liq deb xulosa chiqarish mumkin.

Xorijiy investorlar bilan qo'shma korxonalar tashkil qilish jahon bozorida raqobatlasha oladigan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport qilish, yuqori texnologiya va ilm talab qiluvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, eksportning intellektual mulk ob'ektlari litsenziyalarini, injiniring va lizing sohalarida xizmatlar ko'rsatish kabi turlarini rivojlantirish, ilmiy ishlanmalarga, xususan, amaliy fan va texnologiyalar transferti sohasidagi ilmiy ishlanmalarga bozor yo'nalishini qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini ishlab chiqish, investitsiya jarayonini davlat tomonidan va tijorat usulida qo'llab-quvvatlashning eng maqbul yo'llarini belgilab olish imkoniyatini beradi.

### **III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT TARMOQLARIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

#### **3.1. Milliy iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari**

Ma'lumki, dunyo mamlakatlari orasida xorijiy investitsiyalarini o'z milliy iqtisodiyotga jalb etishning raqobat shakli yildan-yilga kuchayib bormoqda. Shu bois, chet ellik investorlarga yaratilgan qulaylik qaysi davlatda ustun bo'lsa, boshqacha qilib aytganda, foyda olish ehtimoli yuqori bo'lsa, tabiiyki, ularning aynan o'sha davlat iqtisodiyotiga o'z sarmoyasini kiritishga qiziqishi ortmoqda. Bu esa, bozor iqtisodiyotining nisbiy samaradorlik qonuniga mos keluvchi yechim hisoblanadi, ya'ni qayerda samara (foyda) olish imkoniyati nisbatan yuqori bo'lsa, tadbirkorlar o'sha erdagi bozorga ko'proq intiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugun O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar ichida eng yuqori investitsiya muhiti yaratgan mamlakatlardan biri bo'lib qoldi. Bu muhit, shubhasiz, iqtisodiyotimizga to'g'ridan-to'g'ri jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar oqimi hajmini yanada ko'paytiradi.

Davlatimiz iqtisodiy siyosati ko'proq to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishga va uni rag'batlantirishga qaratilganligi bois, turli shakldagi investitsiyalar oqimi yildan-yilga ortib bormoqda. Chunki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar doirasida aynan sarmoyadorlarning o'zlari bevosita ishtirok etishi hisobga olingan va buning uchun yetarlicha shart-sharoitlar mavjud. Ayniqsa, respublika hududlaridagi boy mineral xom ashyo resurslari, etarli miqdordagi malakali ishchi kuchlari, sog'lom atrof-muhit, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik kabi omillar shubhasiz, xorijiy investitsiyalar oqimining yanada ko'payishiga, respublika mintaqalarida faoliyat yuritadigan korxonalar rivojiga xizmat qilmoqda.

Erishilgan yutuqlar bilan birga, TTXIlarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilish borasida to‘siq va kamchiliklar ham mavjud. Buning yaqqol misoli qilib, infratuzilmaning sust rivojlanganligi, O‘zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini jahon OAVlarida reklamasi yo‘lga qo‘yilmaganligi, investitsiyalarning viloyatlararo taqsimotida yuqori differensiyalashganligi, valyuta konvertatsiyasiga to‘laligicha erishilmaganligi va hokozolarni keltirishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan ham xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini faollashtirish va bevosita xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish maqsadida manzilli tadbirlar amalga oshirilishi kerak.

Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta‘sir qiluvchi omillardan biri sifatida marketing tadqiqoti samarali yo‘lga qo‘yilmaganligi natijasida ko‘plab ishlab chiqarilgan mahsulotlar omborlarda qoldiq bo‘lib qolayotganligini ko‘rsatilmokda. Bu muammoni faqat investitsiyalarning o‘ziga bog‘liq, yechimini izlamasdan, aholi va korxonalarining iste‘mol qobiliyatini tadqiq etish, ishlab chiqarilgan tovar (xizmat)larga nisbatan talab darajasini oshirish nuqtai nazaridan qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mamlakatimiz hududiy tarkibida notekislik saqlanib qolmokda. Ayni paytda investitsion muhit borasida hududlardagi asosiy muammolarning mavjudligi investitsiyalash imkoniyatlari cheklanishi, va amaradorligi pasayishiga sabab bo‘lmoqda, chunki investitsion muhitdagi moliyaviy muammolarning hal etilmaganligi ayrim hududlarni oqsoq hududlar qatoriga tushishiga sabab bo‘ladi. Hamda asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar bo‘yicha tarkibi tahlili, ularning dinamikasi o‘sishi barqarorlik an‘anasiga ega bo‘lib borayotganligini ko‘rsatmoqda (3.1-jadval).

Ushbu 3.1-jadvalda keltirilgan tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar bo‘yicha tarkibida 2016 yil yakuniga ko‘ra, Sirdaryo viloyati 2,2 %ni, Jizzax viloyati 2,5 %ni Xorazm viloyati 2,9%ni tashkil qilgan holda asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi va investitsion jozibadorlik borasida eng past darajadagi hududlardan bo‘lib qolmoqda.

**Mintaqalar bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan  
investitsiyalar tarkibi<sup>40</sup>**

	mlrd. so'm			foizda		
	2010	2015	2016	2010 y.	2015 y.	2016 y.
<b>O'zbekiston</b>	<b>33715,3</b>	40737,3	49476,8	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Qoraqalp.Res	3840,3	5757,0	3730,2	4,5	14,1	7,5
Viloyatlar:						
Andijon	1407,5	1637,8	1882,2	1,8	4,0	3,8
Buxoro	3308,3	3878,4	5822,7	4,1	9,5	11,8
Jizzax	1026,7	1027,9	1252,7	0,6	2,5	2,5
Qashqadaryo	3944,4	5224,3	6334,0	8,4	12,8	12,8
Navoiy	1544,4	1690,7	2839,1	9,5	4,2	5,7
Namangan	1620,0	1926,6	2362,6	2,2	4,7	4,8
Samarqand	2185,7	2767,1	3362,2	2,3	6,8	6,8
Surxondaryo	1377,4	1552,4	1891,8	1,1	3,8	3,8
Sirdaryo	920,4	1001,8	1091,2	1,1	2,5	2,2
Toshkent	3633,9	3929,2	3808,4	8,4	9,6	7,7
Farg'ona	1963,0	2072,7	2346,8	2,5	5,1	4,7
Xorazm	1220,6	1397,8	1451,4	1,3	3,4	2,9
Toshkent sh.	5642,8	6747,3	10738,7	41,9	16,6	21,7

Ilmiy tadqiqotlarni ko'rsatishicha, mamlakatimiz hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda quyidagi qator muammolar mavjud bo'lib, ularning yechimini ishlab chiqishni taqazo etmoqda:

- investitsiya infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi banklar, investitsiya fondlari va lizing kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yish;

-tadbirkorlarning biznes-ko'nikmalari, shu jumladan, investitsiya loyihalari bilan ishlash tajribasi va huquqiy bilimlari etarli emasligi;

- hududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko'rsatuvchi markazlar tashkil etish va foliyatini rivojlantirish;

-investitsiya takliflari va loyixa texnik-iqtisodiy asoslarining belgilangan talablarga javob bermasligi – tadbirkorlarga investitsiya

<sup>40</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

loyihalarini ishlab chiqishda tijorat banklari, hududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqa mas'ul idoralar tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishini mahalliy hokimliklar tomonidan tashkil etish va doimiy nazoratga olish;

-loyiha tashabbuskorlari moliyaviy-iqtisodiy holatining nochorligi – investitsiya dasturlari va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlarga kiritish taklif etilayotgan loyihalar tashabbuskorlarining moliyaviy-iqtisodiy holatining maxalliy hokimliklar va tijorat banklari tomonidan chuqur tahlil qilinishi;

-mahalliy hokimliklarning xorijiy investorlarni hudud to'g'risida to'liq investitsion muhitga oid ma'lumotlar bilan ta'minlashda faol ishtirok etmayotganligi – xorijiy investorlarni to'laqonli ravishda axborot (investitsiya loyihalari va biznes takliflar bazasi, hududiy matbuot nashrlari, iqtisodiy tahlil xom-ashyo va mehnat salohiyati to'g'risida ma'lumotlar) bilan ta'minlash uchun har bir hudud bo'yicha "Viloyat investitsiya salohiyati" veb-portalini tashkil etish, investitsiya faoliyatiga oid konferentsiyalar, seminarlar va taqdimotlar (respublika hududida va xorijiy mamlakatlarda) o'tkazish.

Ayrim korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilishda ham mavjud muammolar bo'lib, ular samarali sa'y-harakatlarni taqazo etadi:

- xom-ashyo sotib olishga aylanma mablag'lar etishmasligi – korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini o'rganib chiqib, uni moliyaviy sog'lomlashtirish, qarzlarini restrukturizatsiya qilish bo'yicha muvofiqlashtirish ishlarini olib borish orqali eksport istiqbolini bajarishga amaliy yordam ko'rsatish;

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda xom-ashyoning etishmasligi (pomidor, o'rik, va b.) – ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish va xom-ashyo bazasi bilan bog'liq masalalarni loyiha tashabbuskorlari bilan birga ishlab chiqish;

- infratuzilmaga oid muammolar, shu jumladan, korxonalarining elektr energiya, tabiiy gaz, suv va yoqilg'i mahsulotlari bilan ta'minlashda uzilishlar

mavjudligi – eksportyor korxonalarini uzluksiz ravishda elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va nazoratga olish;

- texnologiya va asbob-uskunalarining eskirganligi, ishlab chiqarilgan mahsulotning xalqaro standartlarga javob bermasligi va raqobatbardosh emasligi – texnologik asbob-uskunalarini zamonaviylashtirish maqsadida xalqaro ko'rgazma-savdolarda ishtirok etishni ta'minlash, tejamkor texnologiyalarni tanlash va ularni moliyalashtirish manbalarini aniqlash;

- korxonalarda marketing xizmatining to'g'ri tashkil qilinmaganligi, tovar ishlab chiqaruvchilarning chet el bozorlari, ishlab chiqaruvchilari va xaridorlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlanmaganligi, korxonalarda marketing bilan shug'ullanuvchi xodimlar bilimining, malakasining etarli darajada emasligi – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ishlab chiqarish hamda eksport salohiyati, marketing va mahsulotlarni sotishga bag'ishlangan amaliy o'quv mashg'ulotlari, seminarlar va ko'rgazmalarni tashkil etishni muntazam yo'lga qo'yish lozim.

Qo'shma korxonalar faoliyat yuritishdagi yana bir muhim muammo bu milliy valyutamiz so'mni barqarorligi va mustahkamligi bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Bugungi eng muhim vazifa valyutamizni baquvvat, dunyoda obro'li valyutaga aylantirishdir. U yuksak qiymatga va katta kuchga ega bo'lishi lozim. So'mning barqarorligini ta'minlash va qadrini oshirish - umummilliy vazifa. Respublikamizdagi barcha fuqarolarning farovonligi ana shu vazifaning hal etilishiga bog'liq"<sup>41</sup>.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi investitsion loyihalarni, ularning barcha hujjatlari, texnik iqtisodiy asosini sifatli va talab darajasida ishlab chiqaruvchi professional loyiha injiniring kompaniyalarining sanoqli ekanligi va yaxshi rivojlanmaganligi, ularning malakali kadrlar bilan ta'minlanmaganligi ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Ushbu kompaniyalar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar talab darajasida emas. Ular xorijiy moliyaviy institutlar shartlariga mos

---

<sup>41</sup> Karimov I. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.:O'zbekiston, 1995, 200-b.

kelmaydi, ularning ekspertizada loyihaning asoslanmagan tomonlari-kamchiliklari koʻzga tashlanib qolmoqda. Bu loyiha hujjatlarining asosli ravishda tayyorlanmaganligi, hisob-kitoblarda noaniqliklar mavjudligi bilan izohlanadi.

Xorijiy investorlar mablagʻlari bu kichik biznes va tadbirkorlik subʼektlariga beriladigan begʻaraz insonparvarlik yordami emas. Shuning uchun har bir tadbirkor loyihaning moliyaviy rejasini tuzishda xorijiy investor oʻrnida oʻzini his qilishi va shunga yarasha mablagʻlar harakati prognozini toʻgʻri hisoblab chiqishi zarur. Boshqacha qilib aytadigan boʻlsak, xorijiy investor ham mahalliy hamkorga oʻxshab, maʼlum vaqtdan soʻng foyda olish maqsadida mablagʻlarini maʼlum bir sohaga joylashtiradi. Agar u investitsiya rentabelligiga erishmasa, loyihadan koʻzlangan foydani olmasa, xorijiy investorning loyihaga boʻlgan qiziqishi susayadi. Bu boshqa investorlarning respublikamizda kichik va oʻrta biznes sohasiga boʻlgan fikri, munosabatiga salbiy taʼsir etishi mumkin.

Shuningdek, respublikamizda oʻz ish faoliyatini amalga oshirmoqchi boʻlgan xorijiy investorlarning oʻz majburiyatlarini bajarmaslik holatlari ham uchramoqda. Xorijiy investorlarning oʻz zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarmasligi, jumladan, qoʻshma korxonalar nizom jagʻarmasiga oʻz vaqtida badallarni kiritmasligi, badal kiritish va asbob-uskuna yetkazib berish boʻyicha kafolatlarni oʻz vaqtida taqdim etmasligi, asbob-uskuna yetkazib berish va montaj qilishda kamchilik va xatolarga yoʻl qoʻyish holatlari ham mavjud.

Mamlakatda telekommunikatsiya va aloqa tarmoqlari jahon standartlariga javob bera olmasligi, reklama-axborot taʼminotidagi taqchillik mavjudligi ham xorijiy investorlar faoliyat yuritishiga muayyan toʻsiq boʻlmoqda.

Mahsulot bozori, nufuzli raqobatchilarning narx va ishlab chiqarish siyosati, xom ashyo materiallariga boʻlgan imkoniyatlar, yangi ishlab chiqarishni tashkil etish natijasida kelib chiqishi mumkin boʻlgan ekologik holatni baholash boʻyicha maʼlumotlarning etishmasligi jiddiy muammo boʻlib qolmoqda.

Mamlakatda qulay investitsion faoliyatni yaratish boʻyicha amal qilib kelayotgan qonuniy-huquqiy baza, xorij sarmoyasi uchun yaratilgan imtiyoz va qulayliklarni targʻibot-tashviqot qilish ishlari sust kechmoqda. Joylardagi huquqni

muhofaza qilish muassasalari tomonidan respublikada investitsion faoliyatni tartibga solish va himoya qilish qonuniy bazasiga amal etilishi sust nazorat qilish holatlari uchramoqda.

Mustaqillik yillarida respublikada xorijiy firmalar va qo'shma korxonalarini imtiyozli ravishda soliqqa tortishning e'tiborga loyiq huquqiy asosi yaratildi, investitsiya va tadbirkorlikni himoya qilishga doir boshqa choralar ko'rildi. Ammo, xorijiy kapitalni jalb qilish holati hozircha yetarli emas, xorijiy kapitalli kompaniyalarni ochish ishida bir qator kamchiliklar ham mavjud, valyuta almashtirish operatsiyalarida nomukammallik va cheklanganlik, tadbirkorlik uchun infratuzilmani takomillashtirish (yo'llar, aloqa, yuqori toifadagi mehmonlar va boshqalar), qator mahalliy xo'jalik tuzilmalari tomonidan imzolangan shartnoma majburiyatlari va unga bo'lgan arbitraj yo'qligi muammosi - Respublika iqtisodiy voqeligining boshqa salbiy jihatlari xorijiy investitsiyani jadal jalb qilish va uni zudlik bilan yaxlit erkin iqtisodiy hududga aylantirishga xalaqit bermoqda.

Strategik muhim, birinchi navbatda, infratuzilmani shakllantirish, ishlab chiqarishni rekonstruktsiya qilish va modernizatsiya etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishga ichki resurslarni jalb etishda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi alohida o'rin egallaydi. Mazkur jamg'armaning tarkibiy o'zgarishlardagi tobora ortib borayotgan rolini inobatga olgan holda, yaqin yillarda uning hisobida 10 mlrd. dollardan ziyod mablag' jamlanadi.

Kelgusi yillardagi ustuvor yo'nilishlardan biri mamlakatimizda, eng avvalo, jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, chet el investorlari uchun kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat.

Ma'lumki, xorijiy investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb qilish quyidagi uch guruh omillariga ham bog'liq bo'ladi:

- birinchidan, investitsiya quvvatini mavjudligi. Uni tabiiy, mehnat zahiralari, shuningdek ishlab chiqarish, iste'mol, moliyaviy, innovatsiya, institutsional va infratuzilmaviy quvvatlar tashkil qiladi;

- ikkinchidan, mavjud investitsiya sharoitlari muhim ahamiyatga egadir.

Bularga: umumiy iqtisodiy, bozor me'yoriy-huquqiy, axborot bilan ta'minlash, ekologik, ijtimoiy, etnografik va ijtimoiy madaniy sharoitlar kiradi;

- uchinchidan, investitsiya tavakkalchiligi (riski) omillaridir. Ular xorijiy investorlarning investitsiya quvvati va investitsiya sharoitlarining qulay afzalliklaridan foydalanish bo'yicha vazifalariga qarama-qarshi turadi.

Ushbu guruhlar bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir. Misol uchun yetarli darajada jalb qiluvchi bo'lmagan investitsiya sharoitlari, hatto yuqori quvvatli investitsiya loyihlarini amalga oshirish imkoniyatlarini ham pasaytirib yuboradi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida, davlat ayrim tizimlarni shakllanishiga, yangi hududlar va ishlab chiqarishni o'sishida boshlang'ich manbalarini tashkil etilishiga yoki ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratish lozim. Davlat hisobidan investitsiyalarini moliyalashtirishda, ularning strategik rivojlanishda ahamiyatga ega bo'lgan, lekin kelajakda tez samara bera olmaydigan tarmoqlar va ilmiy tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilishi talab etilmoqda.

Butun dunyoda davlat mablag'lari asosan yo'l qurilishi, shahar obodonchiligi va ishlab chiqarish infratuzilmalarining rivojlanishi kabi umumiy miqyosdagi ishlarga sarflanadi. Bozor iqtisodiyotining bozor mexanizmi sharoitida davlatning roli asta-sekin torayib borib, davlat miqyosi darajasidagi vazifalar qoladi. Ya'ni, ijtimoiy sohaning boshlang'ich ta'limi, sog'liqni saqlashning tez tibbiy xizmat ko'rsatish sohasi, davlat boshqaruvi va boshqalarni moliyalashtirish budjet hisobida qoladi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, chet el investorlariga turli yengillik va imtiyozlarni joriy etish bo'yicha Xitoy davlati tajribasi ham ahamiyatlidir. Xitoy hukumati investitsiyalar oqimini hududlar darajasida, mahalliy hokimiyatga katta vakolat bergan holda muvaffaqiyatli muvofiqlashtirib kelmoqda.

Markaziy organlar umumiy investitsiya siyosati doirasida qaysi sohaga investitsiyalarni yo'naltirish zarurligini aniqlab beradi. Mahalliy organlar esa, bir vaqtda investitsiyalarni rag'batlantirish dasturlarini ishlab chiqadi. Chet el

investitsiyalarini jalb etish uchun “soliq kanikuli” va yengilliklari, import ta’riflari bo’yicha engilliklari kabi turlicha rag’batlantirish usullari ishlab chiqilgan. Ayniqsa shu yo’sinda erkin iqtisodiy zonalarda tashkil etilgan korxonalariga nisbatan bunday engillik va imtiyozlar ko’p berilmoqda.

Xorij tajribasi shuni ko’rsatmoqdaki, investor uchun ko’plab shart-sharoitlar yaratilgan. Xitoy hukumati tomonidan mamlakatning ichki rayonlariga ko’plab, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun, ularga uzoq muddatga soliq to’lashdan ozod etish, foydasini har qanday to’siqlarsiz olib chiqib ketish kabi shart-sharoitlarni yaratmoqdalar. Mahalliy hokimiyatlar mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun chet el kapitalini jalb qilishni rag’batlantirish dasturlarini markaziy organlarning ruxsatsiz hayotga tatbiq etishlari mumkin.

Jahonning ko’pgina davlatlarda hududiy investitsiya siyosatidagi moliyaviy-iqtisodiy imtiyozlarning va yengilliklarning berilishi hududlarning iqtisodiy rivojlanishlariga zamin yaratmoqdalar.

Respublikamizda ham viloyatlarning, tumanlarning investitsion faoliyatdagi faolligini va mustaqilligini oshirish hududlarga xorijiy investitsiyalarini jalb etishda bir muhim mezon bo’lib kelmoqda.

Jahon amaliyotida investorlarning manfaatlarini himoya qilish va kafolatini ta’minlashning quyidagi usullaridan foydalaniladi. Xususan:

- milliy qonuniyatlarning chet el investorlariga nisbatan mos me’yorlarini qabul qilish;
- ko’p tomonlama shartnomalarning me’yorlarini muvofiqlashtirish; k
- kapital qo’yilmalarni o‘zaro himoyalash va rag’batlantirish bo’yicha davlatlararo ikki tomonlama shartnomalarni muvofiqlashtirish;
- aniq olingan investitsiya loyihalari bo’yicha davlatlararo va xorijiy investorlar bilan kelishuvnomalarni muvofiqlashtirish.

Respublikamizda bu qayd qilingan usullarning barchasidan foydalanilsada, lekin bizning fikrimizcha etarli darajada emas.

Yuqorida qayd etilgan xollar, bizning fikrimizcha, respublikamiz investitsiya faoliyatida mahalliy hokimiyatlarning mustaqilligini va rolini oshirish va maxsus

investitsiyalarni rag'batlantirishning mahalliy dasturlarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek hududlarda investitsiyalarning manbasi sifatida munitsipial va korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish va ulardan oladigan daromadlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash investitsiya oqimini ko'paytirishga omil bo'lishi mumkin.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish murakkablashgan sharoitda, jamg'armalarni to'plashning samarali mexanizmlaridan voz kechmagan holda asosiy e'tiborni davlatning investitsiya rolini kuchaytirish asosida ichki investitsiyalarni faollashtirish choralari tizimini ishlab chiqishga qaratilishi zarur. Bu holda jamgarmalarni investitsiyalarga joylash kabi shartni amalga oshirish muhim o'rin tutadi. Iqtisodiy sub'ektlarning o'z jamgarmalarini investitsiyalarga joylashga moyilligini qo'yilayotgan mablaglarni qaytarib ololmaslik xavfi va investitsiyalash oqibatida olinadigan daromad darajasi bilan belgilanadi.

Mamlakatning investitsion jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan bunday sabablarni bartaraf etish uchun quyidagi muammolarni hal etish lozim:

- infratuzilma darajasining pastligi (audit, sugurta, konsalting, baholash, huquqiy madad, telekommunikatsiyalar, transport va mehmonxona xizmati);

- fond bozorining sust rivojlanganligi, depozit xizmatining nomukammalligi, bozorga tegishli ma'lumotlarning yetishmasligi, fond qimmatli buyumlarining past likvidliligi;

- korxonalarda menejmentning yo'lga qo'yilmaganligi;

- erishilgan bitimlarning bajarmaslikka yo'l qo'yilishi, investitsiya loyihalarini kelishish amaliyotining murakkabligi, hisobga olish tizimining buxgalteriya va moliya hisobi va hisoboti standartlarining xalqaro tizimiga muvofiq emasligi va h.k.

### **3.2. Respublika iqtisodiyoti tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni samarali tashkil etish masalalari**

Strategik muhim, birinchi navbatda, infratuzilmani shakllantirish, ishlab chiqarishni rekonstruktsiya qilish va modernizatsiya etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishga ichki resurslarni jalb etishda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi alohida o'rin egallaydi. Mazkur jamg'armaning tarkibiy o'zgarishlardagi tobora ortib borayotgan rolini inobatga olgan holda, yaqin yillarda uning hisobida 10 milliard dollardan ziyod mablag' jamlandi.

Kelgusi yillardagi ustuvor yo'nilishlardan biri mamlakatimizda, eng avvalo, jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, chet el investorlari uchun kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat.

Bu vazifalarni amalga oshirish 2017-2022 yillar davomida 13 milliard dollardan ziyod yoki o'tgan besh yildagiga nisbatan 1,7 barobar ko'p to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini ta'minlaydi. Ushbu mablag'lar eng ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan va xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash hamda raqobatdosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladigan yangi sanoat korxonalarini tashkil etish bo'yicha chet el investorlari ishtirokidagi 320 tadan ortiq yirik investitsiya loyihasini amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Bunday loyihalar haqida so'z borganda, avvalo Surgil koni bazasida Ustyurt gaz-kimyo majmuasini barpo etish, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasida tozalangan metan bazasida suyultirilgan sintetik yoqilg'i ishlab chiqarish, Muborak gaz-kimyo majmuasini qurish, Qandim guruhi konlarini o'zlashtirib, gazni qayta ishlaydigan zavod barpo etish, Navoiy viloyatida ammiak va karbamid ishlab chiqaradigan zamonaviy kompleks qurish, avtomobil dvigatellari, katta hajmda yuk tashiydigan "MAN" avtomobillari, "Mercedes Bents" shassisi bazasida ko'p o'rinli avtobuslar, "Klaas" kompaniyasi bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab

chiqarishni tashkil etish, texnik va polikristall kremniy ishlab chiqarish, tayyor mahsulot ishlab chiqarishning to'liq sikliga ega bo'lgan vertikal integratsiyalashgan tekstil majmualarini, tayyor dori preparatlarini ishlab chiqaradigan korxonalarini barpo etish va boshqa loyihalarni qayd etish mumkin.

Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishda O'zbekiston yirik xalqaro moliya institutlari, hukumat tashkilotlari va xorijiy banklarni, birinchi navbatda mamlakatimiz bilan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirishga katta qiziqish bildirayotgan Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Yaponiya, Janubiy Koreya va XRR taraqqiyot banklari, qator arab davlatlarining investitsiya fondlarini jal etish masalasiga katta ahamiyat beradi.

Aynan ana shu hamkorlikning moliyaviy ko'magida kelgusi yillar davomida O'zbek milliy avtomagistrali uchastkalarini qurish, ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimlarini barpo etish va rekonstruktsiya qilish, qishloq xo'jaligi erlarining meliorativ holatini yaxshilash, polivinilxlorid va kaustik soda ishlab chiqarish bo'yicha yangi majmua barpo etish, qishloq xo'jaligi texnikasi va avtomobil shinalarini ishlab chiqarishni tashkil etish kabi ko'plab loyihalar amalga oshiriladi.

Bizga ma'lumki, Respublikamiz iqtisodiyotini qaytadan qurish va jadallashtirish uchun chet el investitsiyalardan foydalanish samarasi ortib borar ekan, iqtisodiyotimizni moliyalashtirishda chet el investitsiyalarni ahamiyati juda beqiyos o'rinni egallaydi.

O'zbekistonda davlat mustaqilligining qaror topishidagi qisqa davrda investitsiya faoliyatining qonunchilik asosi yaratadi. Bu qonun hujjatlarida chet el investitsiyalarini jalb etishga keng huquqiy kafolatlari va imtiyozlari tizimi o'z aksini topdi. Yaratilgan qulay investitsiya muhiti birinchi navbatda mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bilan tavsiflanadi. Qabul qilingan qonun hujjatlari bu muhitning negizini tashkil etadi.

Shu bilan birga chet el investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb qilish uch guruh omillariga ham bog'liq bo'ladi.

Birinchidan, investitsiya quvvatini mavjudligi. Uni tabiiy, mehnat zahiralari,

shuningdek ishlab chiqarish, iste'mol, moliyaviy, innovatsiya, institutsional va infratuzilmaviy quvvatlar tashkil qiladi.

Ikkinchidan, mavjud investitsiya sharoitlari muhim ahamiyatga egadir. Bularga: umumiy iqtisodiy, bozor me'yoriy - huquqiy, axborot bilan ta'minlash, ekologik, ijtimoiy, etnografik va ijtimoiy madaniy sharoitlar kiradi.

Uchinchidan, investitsiya tavakkalchiligi omillaridir. Ular chet el investorlarning investitsiya quvvati va investitsiya sharoitlarining qulay afzalliklaridan foydalanish bo'yicha vazifalariga qarama-qarshi turadi.

Barcha guruhlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Misol uchun yetarli darajada jalb qiluvchi bo'lmagan investitsiya sharoitlari, hatto yuqori quvvatli investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini ham pasaytirib yuboradi.

Investitsiya tavakkalchiligi-o'tish iqtisodida bo'lgan, chet el investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha sharoitlarni shakllantirayotgan davlatlar uchun riskning muhim turlaridan biridir. Shuning uchun ham tavakkalchilikni, uning manbalarini va uning oldini olish usullarini aniqlash rivojlanayotgan mamlakatlar uchun hayotiy vazifa bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistondagi mavjud investitsiya muhiti, fikrimizcha, investorlarning investitsiya risklarini baholash asosida chet el investitsiyalari kirib kelishiga qulayliklar yaratish kerak. Chet ellik investorlar qabul qiluvchi mamlakatdagi investitsiya muhitini, uning xavfsizligi, siyosiy risklar darajasi va ularning sug'urtalanishi, investitsiyalash maqsadlarga muvofiqligi, iqtisodiyotning boshqalarga qaraganda qulayligi nuqtai nazardan baholaydilar.

Bugungi kunda respublikada muayyan darajada chet el kapitalini qabul qilish tizimi shakllangan. Bunda chet el kapitaliga nisbatan davlat siyosatini ifoda etadigan huquqiy normalar, qoidalar va muassasalar majmui nazarda tutiladi. Chet el kapitalini qabul qilish tizimi investitsiya muhitining tarkibiy qismiga kiradi va ayni paytda mustaqil hisoblanadi, chunki bu tizimni o'zgartirish xususiyatiga ega. Bu tizimning elementlari quyidagilardan iborat: chet el kapitali uchun soliq va bojxona imtiyozlari berish, foydani boshqa iqtisodiyotga o'tkazishning qulay


rejimi, milliy lashtirishdan kafolatlar, ro'yxatdan o'tkazishning oddiy tartib qoidalari, konsessiyalar berish, erkin iqtisodiy zonalar barpo etish, aksiyadorlik kapitalida hissani cheklash, majburiy eksport kvotasini joriy qilish, narxlarni nazorat qilish, tashqi savdo operatsiyalarini litsenziyalash va boshqalar.

Fikrimizcha, respublikada yaratilgan qulay investitsiya muhitini rivojlantirish uchun rag'batlantirish omillarini kuchaytirish talab etiladi. Shu munosabat bilan ishlab chiqarishga investitsiyalarni rag'batlantirish uchun tadbirkorlik tuzilmalariga jadallashgan amortizatsiya usullarini qo'llashda to'la erkinlik berish kerak. Jamg'arish va investitsiyalashni rag'batlantirish uchun, bizning nazariyamizda, investitsiya bo'yicha soliq kreditlarining turli shakllaridan kengroq foydalanishni yo'lga qo'yishi zarur.

Qulay investitsiya muhitini rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish beqiyos ahamiyatga ega. Soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini to'rt jihatdan olib qarash mumkin, buni quyidagi rasmda ko'rishimiz. Qayd qilingan rag'batlar u yoki bu darajada chet el investitsiyalari ishtirokidagi keng doiradagi korxonalar uchun tatbiq etiladi.

Rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarining amal qilishini, shuningdek investitsiyalarni inson kapitaliga, texnologik o'sish va texnika blimlari sohalarini rivojlantirishga, kengaytirishga ham joriy qilish kerak. Bularning barchasi O'zbekistonda investitsiya muhitini modellashtirish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Bu model xorijiy investorga ta'sir ko'rsatadigan omillar to'g'risida mukammal ma'lumot to'plash, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni yaqqol baholash hamda chet ellik sheriklar harakatlari motivatsiyasini anglash, chet el investitsiyalarini tartibga solishning asosiy vositalarini bir xil qilish imkoniyatlarini yaratadi. Xullas, milliy investitsiya muhiti bevosita chet el investitsiyalari oqimi uchun qulay va maqbul bo'lishi kerak. Buning uchun jami investitsiya risklari, xavfsizlik, daromadlilik, chet el investitsiyalari likvidligi, investitsiyalash maqsadlari inobatga olinishi zarur va bular asosida baholanishi shart. Bu borada qulay mahalliy sharoitlar, investitsiyalarni rag'batlantirish tadbirlari, konsessiyalar tashkil etish, eksport sanoati rayonlari, bojxona bojlari amal qilmaydigan va erkin

savdo zonalarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.



### 3.1-rasm. Soliqlar bo'yicha beriladigan imtiyozlarning turlari<sup>42</sup>

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida, davlat ayrim tizimlarni shakllanishiga, yangi hududlar va ishlab chiqarishni o'sishida boshlang'ich manbalarini tashkil etilishiga yoki ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratish lozim. Davlat hisobidan investitsiyalarini moliyalashtirishda, ularning strategik rivojlanishda ahamiyatga ega bo'lgan, lekin kelajakda tez samara bera olmaydigan tarmoqlar va ilmiy tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilishi lozim.

Butun dunyoda davlat mablag'lari asosan yo'l qurilishi, shahar obodonchiligi va ishlab chiqarish infratuzilmalarining rivojlanishi kabi umumiy miqyosdagi ishlarga sarflanadi. Bozor iqtisodiyotining bozor mexanizmi sharoitida davlatning roli asta-sekin torayib borib, davlat miqyosi darajasidagi vazifalar qoladi. Ya'ni, ijtimoiy sohaning boshlang'ich ta'limi, sog'liqni saqlashning tez tibbiy xizmat ko'rsatish sohasi, davlat boshqaruvi va boshqalarni moliyalashtirish byudjet hisobida qoladi.

Bugungi kunda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarining daromadlarini soliqqa tortishda bir qator imtiyozlar berilgan bo'lsada, bizning

<sup>42</sup> Magistrant tomonidan iqtisodiy adabiyotlar asosida tayyorlandi.

fikrimizcha, birinchidan, bu soliq imtiyozlarining muddati, hajmi, qo'llanish shart-sharoiti aniq ko'rsatilgan bo'lishi, ikkinchidan, bu yengilliklar xorijiy investorlarga yaxshi tanish va tushunarli bo'lib kamida besh-o'n yilga belgilanishi, uchinchidan, soliq imtiyozlari o'zgarmas va qat'iy bo'lishi lozim. Shundagina bu imtiyozlar o'z samarasini berishi mumkin.

Ma'lumki, dunyo mamlakatlari orasida chet el investitsiyalarini o'z milliy iqtisodiyotiga jalb etishning raqobat shakli yildan-yilga kuchayib bormoqda. Shu bois, chet ellik investorlarga yaratilgan qulaylik qaysi davlatda ustun darajada bo'lsa, boshqacha qilib aytganda, foyda olish ehtimoli kattaroq bo'lsa, tabiiyki, ularning aynan o'sha davlat iqtisodiyotiga o'z sarmoyasini kiritishga qiziqishi ortmoqda. Bu esa, bozor iqtisodiyotining nisbiy samaradorlik qonuniga mos keluvchi yechim hisoblanadi, ya'ni qayerda samara (foyda) olish imkoniyati nisbatan yuqori bo'lsa, tadbirkorlar o'sha yerdagi bozorga ko'proq intiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugun O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar ichida eng yuqori investitsiya muhiti yaratgan mamlakatlardan biri bo'lib qoldi. Bu, shubhasiz, iqtisodiyotimizga to'g'ridan-to'g'ri jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar oqimini yanada ko'paytiradi.

Davlat iqtisodiy siyosati ko'proq to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishga va uni rag'batlantirishga qaratilganligi bois, turli shakldagi investitsiyalar oqimi yildan-yilga oshib borayapti. Chunki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar doirasida aynan sarmoyadorlarning o'zlari bevosita ishtirok etishi hisobga olingan va buning uchun bizda yetarlicha shart-sharoitlar mavjud. Ayniqsa, respublika mintaqalaridagi boy mineral xom ashyo resurslari, yetarli miqdordagi malakali ishchi kuchlari, sog'lom atrof-muhit, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik kabi omillar shubhasiz, xorijiy investitsiyalar oqimining yanada ko'payishiga, respublika mintaqalarida faoliyat yuritadigan korxonalar rivojiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi boblarda ta'kidlab o'tilgan huquqiy-me'yoriy asoslarning yana bir muhim jihati - bu uning xususiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilganligidir. Ma'lumki, chet el ishbilarmon doiralari, yirik mulk egalarning O'zbekistonga

qiziqishi, qolaversa, avvaldan O'zbekistonda o'z mulki va sarmoyasiga ega bo'lgan ko'plab chet el tadbirkorlari o'z bizneslarini yanada kengaytirish niyatida ekanliklari hech kimga sir emas. Shularni hisobga olganda, aynan xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishga qaratilgan shartlar bu uzoq strategik ahamiyatga molik to'xtamdir.

Xususiylashtirilayotgan korxonalarining investitsiya jozibadorligini oshirish, xorijiy investorlarni jalb etish uchun qo'shimcha rag'batlantirishlarni tashkil qilish maqsadida nazorat aktsiya paketlarini sotib olmasada, korxonalariga salmoqli hajmlarda investitsiyalar kiritayotgan investorlarga professional boshqaruvchi kompaniyalarga beriladigan davlat aktsiyalar ulushini boshqarish huquqini tanlovlarsiz berish ko'zda tutilgan. Farmonning yana bir asosiy xususiyati – bu investitsiya kiritish shartlari va joylarining aniq belgilab qo'yilganligidir. Ortiqcha ishchi kuchi bo'lmagan mintaqalar - Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida, Navoiy, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining qishloq aholi punktlarida yangi korxonalarini joylashtirish ko'zda tutilgan. Bunday holat xususiy saromyaga ega bo'lgan chet el tadbirkorlar faoliyatini yanada rag'batlantirish maqsadiga ega.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etishga manfaatdor har qanday davlat o'zining investitsiya siyosatini takomillashtirib boradi. Bu siyosat xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o'ziga xos yo'nalishini, shuningdek ularni jalb etishni rag'batlantirish tizimini aniqlab beradi va investitsiya faoliyatining huquqiy tartibini belgilaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda va jahon tajribasida xorijiy investitsiyalarni muvofiqlashtirishda turlicha tartib va usullarning bo'lishi qayd etilgan. Masalan: milliy tartib; adolatli va teng huquqlilik tartibi; qulay muhit barpo etish tartibi; transparent (shaffoflik) tartibi va boshqalar. Shu bois jahon amaliyotida qo'llanilayotgan bu kabi tartib va usullarni qiyosiy tahlil etish bizningcha maqsadga muvofiqdir.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida amaliyotda sinalgan investitsiya siyosatining samaradorligini baholashning umumlashtiruvchi mezonlari va

huquqiy tartiblarining turlicha variantlaridan shakllangan ob'yektiv qonunlar asosida iqtisodiyotni rivojlantirish tajribasi to'plangan.

Sanoati rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik xorij kapitali va investitsiyani maxsus qonunlarsiz ham yetarlicha himoyalash imkoniyatini beradi. Bu yerda xorijiy investitsiyalar ham milliy ichki investitsiyalar kabi umumiy qonunlar asosida muvofiqlashtiriladi. Bu mamlakatlardagi aniq ishlab chiqilgan qonuniy baza chet el investorlarining to'laqonli faoliyatini, ya'ni yangi kompaniyalarni tashkil etishda erkin faoliyatni (ro'yxatdan o'tkazish jarayoni, mulk huquqi kafolati), foyda olish (soliq siyosatidagi yengillik va imtiyozlar), nizolarni tartibga solish (mehnat qonunlaridagi shaffoflik, monopoliyaga qarshi aniq tadbirlar) kabilarni kafolatlaydi.

G'arb mamlakatlarida hukumat kapital qo'yilmalarni faollashtirish strategiyasida ko'proq xorijiy investitsiyalarni muvofiqlashtirishning egri usulidan (soliq, amortizatsiya, moliya-kredit siyosati) foydalanishni afzal ko'rishadi. So'nggi ikki o'n yillikda g'arbda investitsiya qarorlarini qabul qilishda va amalga oshirishda mahalliy hududlarning javobgarligi va roli oshib bormoqda. Qator mamlakatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya) mahalliy organlar xorijiy investitsiyalarni va investorlar faoliyatini muvofiqlashtirishda yetarlicha mustaqillikka egadir. Bu yerda investitsiya bozorini muvofiqlashtirishning asosiy vositasi sifatida daromad solig'i (foyda solig'i) qo'llaniladi. Bu soliq stavkasining o'zgarishi firma va kompaniyalarning investitsiya faoliyatiga bevosita ta'sir etadi.

Umuman so'nggi 20 yil mobaynida rivojlangan mamlakatlarda investitsiya faoliyati keng kompyuterlashtirish, resurslarni tejash, yangi zamonaviy texnologiya, shuningdek mahalliy xokimiyatni roli va javobgarligini oshirish asosidagi yangi boshqaruv tizimi asosidagi iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishga yo'naltirilgan. Mahalliy hokimiyatlarga investitsiya dasturlarini boshqarishda, ekologik siyosatni yurgizishda va hududiy rejalashtirishda asosiy rol belgilangan. Jahon tajribasi shundan guvoh beradiki, investitsiya dasturi va loyihalarining

muvaffaqiyatli amalga oshishi uning ishtirokchilari o'rtasida optimal proporsiyani ta'minlashga bog'liqdir.

Rivojlangan mamlakatlarda hududiy investitsiya siyosatini olib borish o'ta muhim masalalardan sanaladi. Davlat doimiy ravishda har bir hududning iqtisodiy imkoniyati, rivojlanish darajasini e'tiborga olgan holda investitsiya siyosatini olib boradi. Amerika Qo'shma Shtatlarida federal darajada maxsus xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish dasturlari ishlab chiqilmagan. Xorijiy investitsiyalar uchun tavsiya etiladigan barcha imtiyoz va yengilliklar shtatlar darajasida ishlab chiqilgan. Bu esa o'z navbatida xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha shtatlar o'rtasida erkin raqobatni vujudga keltiradi. Har bir 50 shtat milliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha o'zining maxsus ishlab chiqqan dasturiga ega.

Har bir shtat aniq maqsadga qaratilgan xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha bir necha xil dasturlarni ishlab chiqadi. Ular quyidagi maqsadlarda bo'lishi mumkin: ish joylarini tashkil etish; shtatni va alohida shtat hududlarining iqtisodiyotini rivojlantirishni rag'batlantirish; zamonaviy ilg'or texnologiyani joriy etish va fan texnika taraqqiyoti yutuqlariga erishish va h.k.

AQShda shtatlar miqyosida xorijiy investorlar uchun beriladigan imtiyozlar - bu soliq imtiyozlari, moliyaviy yordam, infratuzilmani rivojlantirishda hamkorlik, kadrlar tayyorlash, ijara haqi va elektr to'lovlarini kamaytirish, past foizlarda kredit shaklida bevosita moliyaviy resurslar ajratish kabilardan iborat.

Har bir shtatning mustaqil investitsiya siyosatini olib borishi, erkin raqobatning vujudga kelishiga, shu hududda ishlab chiqarishning, tadbirkorlikning rivojlanishiga zamin yaratadi.

So'nggi yillarda qator mamlakatlarda hududni iqtisodiy rivojlantirish korporatsiyalarini tashkil etish tajribasi keng qo'llanilmoqda. Bu korporatsiyalar mazkur hududda joylashgan firmalarning ishtirokida maxsus fondlarni shakllantiradi. Bu fond mablag'lari hududda infratuzilmani rivojlantirishga, yangi qurilishlarga yo'naltiriladi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, chet el investorlariga turli yengillik va

imtiyozlarni joriy etish bo'yicha Xitoy davlati tajribasi ham ahamiyatlidir. Xitoy hukumati investitsiyalar oqimini hududlar darajasida, mahalliy hokimiyatga katta vakolat bergan holda muvaffaqiyatli muvofiqlashtirib kelmoqda.

Markaziy organlar umumiy investitsiya siyosati doirasida qaysi sohaga investitsiyalarni yo'naltirish zarurligini aniqlab beradi. Mahalliy organlar esa bir vaqtda investitsiyalarni rag'batlantirish dasturlarini ishlab chiqadi. Chet el investitsiyalarini jalb etish uchun "soliq kanikuli" va yengilliklari, import ta'riflari bo'yicha engilliklari kabi turlicha rag'batlantirish usullari ishlab chiqilgan. Ayniqsa ko'pgina erkin iqtisodiy zonalarda tashkil etilgan korxonalariga nisbatan bunday engillik va imtiyozlar ko'proq ishlatiladi.

Hozirda Xitoy hukumati mamlakatning ichki tumanlariga ko'plab, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun, ularga uzoq muddatga soliq to'lashdan ozod etish, foydasini har qanday to'siqlarsiz olib chiqib ketish kabi shart-sharoitlarni yaratmoqdalar. Mahalliy hokimiyatlar mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun chet el kapitalini jalb qilishni rag'batlantirish dasturlarini markaziy organlarning ruxsatsiz hayotga tatbiq etishlari mumkin.

Xitoy davlatining investitsiyalar bo'yicha qonunlari Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur kabi davlatlarining qonunlariga ko'p jihatdan o'xshash holda ishlab chiqilgan. Shuning bilan birgalikda ta'kidlash lozimki, turlicha davlatlarning qonunlarida chet el investorlari faoliyatiga cheklanmalar ham belgilangan. Deyarli barcha davlatlarda chet el kapitali kiritilishi mumkin bo'lmagan tarmoqlar mavjuddir. Bir qancha davlatlarda chet el investitsiyalari uchun ayrim tarmoqlar to'liq yopiqdir.

Xorijiy investorlarning faoliyati bo'yicha cheklovlarni muvofiqlashtirishda mahalliy organlarning ishtiroki ham salmoqlidir. Bir qancha davlatlarda mahalliy hududdagi iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib, xorijiy investorlarning faoliyatida turlicha cheklovlarni belgilaydi. Masalan AQShda ayrim shtatlarda foydali qazilmalarga chet el kapitalini jalb etish man etilgan bo'lsa, ayrim shtatlarda yer uchastkasini sotib olishda cheklovlar belgilangan. Biroq, Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, ko'pgina davlatlarda hududiy investitsiya siyosatidagi moliyaviy-

iqtisodiy imtiyozlarning va yengilliklarning berilishi hududlarning iqtisodiy rivojlanishlariga zamin yaratmoqdalar.

Respublikamizda ham viloyatlarning, tumanlarning investitsion faoliyatdagi faolligini va mustaqilligini oshirish hududlarga chet el investitsiyalarini jalb etishda bir muhim mezon bo'lishi mumkin.

Jahon amaliyotida investorlarning manfaatlarini himoya qilish va kafolatini ta'minlashning quyidagi usullaridan foydalaniladi: milliy qonuniyatlarning chet el investorlariga nisbatan mos me'yorlarini qabul qilish; ko'p tomonlama shartnomalarning me'yorlarini muvofiqlashtirish; kapital qo'yilmalarni o'zaro himoyalash va rag'batlantirish bo'yicha davlatlararo ikki tomonlama shartnomalarni muvofiqlashtirish; aniq olingan investitsiya loyihalari bo'yicha davlatlararo va xorijiy investorlar bilan kelishuvnomalarni muvofiqlashtirish. Respublikamizda bu qayd qilingan usullarning barchasidan foydalanilsada, lekin bizning fikrimizcha etarli darajada emas.

Yuqorida qayd etganimizdek, bizning fikrimizcha, respublikamiz investitsiya faoliyatida mahalliy hokimiyatlarning mustaqilligini va rolini oshirish va maxsus investitsiyalarni rag'batlantirishning mahalliy dasturlarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek hududlarda investitsiyalarning manbasi sifatida munitsipial va korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish va ulardan oladigan daromadlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash investitsiya oqimini ko'paytirishga olib kelishi mumkin.

Investitsiya loyihalarini xorijiy investorlar ishtirokida investitsiyalashni tashkil etish quyidagi yo'nalishda bo'lgani maqsadga muvofiqdir:

- xorijiy investorning loyihani realizatsiya qilishdagi mas'uliyatini kuchaytirish, ularning loyihani boshidan oxirigacha milliy investorlarning ulushidan kam bo'lmagan miqdorda kapitali bilan samarali ishtirok etishini ta'minlash va bunday mas'uliyat va majburiyatlar me'yoriy hujjatlarda, jumladan shartnomada qat'iy qilib belgilanishi va amal qilishi kerak;

- O'zbekistan sharoitida ilg'or va zamonaviy uskuna va texnologiya ehtiyojni hisobga olgan holda xorijiy investorlarni uz texnologiyasi va uskunalarni

o'zlashtirish tajribalarini milliy kadrlarga o'rgatish zimmasini yuklash va ularning bunday majburiyatlarni bajarishga mafaaddorligini oshirish zarur;

- investorlar manfaatlarining bir biriga mos kelmasligi, ya'ni xorijiy investorlarning maqsadi yuqori darajada foyda olish, o'zbek investorlari esa foyda olish bilan birga ilg'or texnologiya va ish tajribasiga ega bo'lish ekanligini hisobga olgan holda loyihani realizatsiya qilmasdanoq shartnomada tomonlarning ulushi qanday valyutada, qanday o'lchov birligida baholanishi, foydani taqsimlash tartibi aniq va qat'iy belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar iqtisodiyotini o'rganishdagi xorij tajribalari quyidagi holatlarga befarq bo'lmaslikni talab etadi: xorijiy investitsiyalardan olingan daromadning katta qismi qayta investitsiyalanmay, korxonalarining xorijiy hamkor-egalari orasida taqsimlanishiga; xorijiy investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishida asosan kapital tez aylanadigan sohalarga kiritishga moyilligiga; xorijiy investorlar resurslarni bozor infratuzilmasi yaxshi rivojlangan, aholisi to'lovga qodir bo'lgan markazlar hamda xom ashyo mintaqalariga joylashga intiladi.

### **III bob bo'yicha xulosa**

Fikrimizcha, respublikamiz investitsiya faoliyatida mahalliy hokimiyatlarning mustaqilligini va rolini oshirish va maxsus investitsiyalarni rag'batlantirishning mahalliy dasturlarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek hududlarda investitsiyalarning manbasi sifatida munitsipial va korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish va ulardan oladigan daromadlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash investitsiya oqimini ko'paytirishga olib kelishi mumkin. Mahalliy hokimliklarning xorijiy investorlarni hudud to'g'risida to'liq investitsion muhitga oid ma'lumotlar bilan ta'minlashda faol ishtirok etmayotganligi – xorijiy investorlarni to'laqonli ravishda axborot (investitsiya loyihalari va biznes takliflar bazasi, hududiy matbuot nashrlari, iqtisodiy tahlil xom-ashyo va mehnat salohiyati to'g'risida ma'lumotlar) bilan ta'minlash uchun har bir hudud bo'yicha

“Viloyat investitsiya salohiyati” veb-portalini tashkil etish, investitsiya faoliyatiga oid konferensiyalar, seminarlar va taqdimotlar (respublika hududida va xorijiy mamlakatlarda) o‘tkazish aynan hududiy investitsiyaviy jozibadorlikni oshishiga hamda hududlarda iqtisodiy rivojlanishga muhim omillardan biri bo‘ladi degan umiddamiz.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda mamlakatimizni jadal isloh etish va modernizatsiya qilish izchil ravishda davom ettirilib, bunda milliy iqtisodiyotni izchil va bardavom rivojlantirish asosiy dastagi hisoblangan xorijiy investitsiyalarga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu maqsadda xorijiy investorlarni milliy iqtisodiyotning xalqaro savdoda raqobatga bardosh beradigan tarmoqlariga jalb etish, aholini ish bilan ta'minlashga xizmat qiluvchi loyihalarni, mahalliy bozorga xizmat qilishga mo'ljallangan investitsiyalar bilan bir qatorda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning istiqbolli sohalarda ko'proq eksportga yo'naltirilgan investitsion loyihalarni amalga oshirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashning bozor mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Jahon iqtisodiyoti globallashib, biznes yo'lidagi to'siqlar tobora kamayib, mamlakatlar iqtisodiyoti erkinlashib borayotgan hozirgi sharoitda chetdan kiritiladigan investitsiya oqimlari tez sur'atlar bilan o'smoqda. Investitsiyalashning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash, ilmiy asoslangan investitsiya qarorlarini qabul qilish, investitsiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida ichki va tashqi moliyaviy manbalarni, barcha shart-sharoitlarini hisobga olgan holda jalb qilish milliy iqtisodiyotning kelajagini belgilaydi.

Investitsiyalar ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishga xizmat qiluvchi va milliy xo'jalikdagi takror ishlab chiqarish jarayonlarini ta'minlovchi rolni bajaradi. Davlatning investitsiya siyosati esa maqsadli ravishda iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini jadallashtirishga qaratilgandir. Milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligidagi mavqeini mustahkamlash, milliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozoridagi raqobatbardoshlik darajasini yanada ko'tarish, sanoatning texnik tarkibini zamonaviylashtirish muammolari ham davlat siyosatining boshqa omillari qatorida investitsion siyosat orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonning imkoniyatlarini o'rganib chiqqan holda, quyidagi xulosaga keldik. Mamlakatimizda nafaqat tarixiy-me'moriy yodgorliklar bo'yicha

sayyohlik, balki eko va bioturizm, sog'lomlashtirish oromgohlari, faol sayyohlik yo'nalishlari, rafting turlari bo'yicha turizm hududlarini tashkil etish mumkin.

O'zbekiston sog'lomlashtirish oromgohlarini qurish uchun kerakli bo'lgan tabiiy resurslarga boy, havosi toza bo'lgan tog'lar, mineral suvlar, buloqlarga ega. Bunday joylarda oromgohlar zamonaviy standartlarga javob beradigan darajada qurilsa, albatta xorijiy turistlar oqimi ko'payadi. Xorijiy sayyohlar tashrifining ko'payishi mamlakatga kirib keladigan investitsiyalar hajmining ortishiga sabab bo'ladi.

Mamlakatimizda eko va bioturizm turlarini tashkil etish uchun ham yetarli sharoitlar mavjud. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan "Badayto'qay" davlat qo'riqxonasi, Qashqadaryo viloyatidagi "Xisor", Surxondaryodagi "Surxon" davlat qo'riqxonasi, Jizzaxdagi "Zomin" oromgohi, Toshkent viloyatidagi "Chorvoq" va "Chotqol" davlat milliy tabiat istirohat bog'lari juda boy va betakror hayvonot hamda o'simlik dunyosi, jozibador manzaralari bilan kishini o'ziga jalb qiladi. Shunday ekan, biz ulardan unumli va oqilona foydalangan holda, xorijiy sayyohlarni jalb etishga ahamiyat berishimiz lozim.

O'zbekistonda milliy iqtisodiyot barqarorligini oshirishda xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishga erishish uchun quyidagilarni taklif qilamiz:

1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ichki muhitni yaxshilash, soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini yanada soddalashtirish, xorijiy investitsiyalarni ro'yxatga olish tizimini soddalashtirish;

2. Xorijiy sarmoyadorni qiziqtiruvchi sohalar, ob'yektlarni aniqlash va ular to'g'risidagi ma'lumotlar majmuini shakllantirish, biznes rejalar va ularni iqtisodiy rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqish va iqtisodiy jihatdan manfaatli bo'lgan sohalarga chet el kapitalini jalb qilish;

3. Eksportda qayta ishlangan, tayyor mahsulotlar salmog'ini ko'paytirish, ayniqsa, paxta va qishloq xo'jaligi mahsulotlarni qayta ishlashni oshirish va bu sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish;

4. Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ishlab

chiqarishni mahalliyashtirishni rivojlantirish uchun yirik ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari bilan samarali aloqasini ta'minlash zarur, ya'ni yirik korxonalarga yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlarni yetkazib beruvchilari bo'lishlari zarur;

5.Chet el investorlari uchun qulay investitsion muhitni yaratib berish va ular uchun kafolatli qonunchilik tizimini yanada takomillashtirish;

6.Eksportga ishlaydigan kichik va o'rta korxonalarni ko'paytirish va ularni samarali faoliyat yuritishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish va davlat tomonidan imtiyozli kredit liniyalari hajmini oshirish;

7.Investitsiya infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi banklar, investitsiya fondlari va lizing kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yish;

8.Infratuzilmaga oid muammolar, shu jumladan, korxonalarining elektr energiya, tabiiy gaz, suv va yoqilg'i mahsulotlari bilan ta'minlashda uzilishlar mavjudligi – eksportyor korxonalarini uzluksiz ravishda elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va nazoratga olish;

9.Mahalliy hokimliklarning xorijiy investorlarni hudud to'g'risida to'liq investitsion muhitga oid ma'lumotlar bilan ta'minlashda faol ishtirok etmayotganligi – xorijiy investorlarni to'laqonli ravishda axborot (investitsiya loyihalari va biznes takliflar bazasi, hududiy matbuot nashrlari, iqtisodiy tahlil xom-ashyo va mehnat salohiyati to'g'risida ma'lumotlar) bilan ta'minlash uchun har bir hudud bo'yicha "Viloyat investitsiya salohiyati" veb-portalini tashkil etish, investitsiya faoliyatiga oid konferensiyalar, seminarlar va taqdimotlar (respublika hududida va xorijiy mamlakatlarda) o'tkazish;

10.Xorijiy investorning loyihani amalga oshirishdagi mas'uliyatini kuchaytirish, ularning loyihani boshidan oxirigacha milliy investorlarning ulushidan kam bo'lmagan miqdorda kapitali bilan samarali ishtirok etishini

ta'minlash va bunday mas'uliyat va majburiyatlar me'yoriy hujjatlarda, jumladan, shartnomada qat'iy qilib belgilanishi va ularga amal etishi shart;

Xorijiy amaliyotining ko'rsatishicha, investorlarning samarali faoliyat yuritishi uchun infratuzilma zarur bo'lib, uni rivojlantirish yirik kapital qo'yimlarini talab etadi. Masalan, Xitoyda 1 dollar chet el investitsiyasini jalb etish uchun 5,5 dollar milliy resurslarni transport tizimi, barqaror suv va energiya ta'minoti, shinam turar-joy uchun sarflash zarur bo'lgan.

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarini jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e'tibor berilmoqda.

Bu imtiyozlarni berishdan maqsad - xorijiy investitsiyalarni ko'proq jalb qilish orqali iqtisodiyotimizning real sektori salohiyatini oshirish, yurtimiz hududlarida yangi, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, yangi ish o'rinlarini ko'paytirish, pirovard natijada mamlakatimizni barqaror va mutanosib tarzda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishdir.

Istiqbolda mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini quyidagi yo'nalishlarga jalb qilish maqsadga muvofiqdir:

- davlat budjeti mablag'larini – fan-texnika taraqqiyotiga (yangi navlarni yaratish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish), irrigatsiya va melioratsiya tadbirlariga;

- korxonalar mablag'larini – tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va qayta ishlash korxonalarini tashkil etishga;

- aholi jamg'armalarini – bandsizlikga barham berish, qo'shimcha ishchi o'rinlarini yaratish va umuman ijtimoiy rivojlantirish tadbirlariga;

– xorij investitsiyalarini – ekologik toza, raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, agrosurslardan samarali foydalanish, eksportni qo‘llab-quvvatlashga;

– xalqaro maydonda mamlakatimizdagi investitsiya muhiti, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoq, kompaniya va tashkilotlarining investitsion imkoniyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni keng targ‘ib etish, tahlil qilish, baholash va tasdiqlash kabi tadbirlarni kuchaytirish;

– raqobatbardosh mahsulotni ta‘minlovchi yangi ishlab chiqarish va tarmoqlarni yaratishga, diversifikatsiya jarayonlariga erishish uchun ishlab chiqarishga fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini boshqarishning ilg‘or usullarini joriy etgan holda qayta ishlab chiqarish zaxiralarini tejashni tashkil etish;

– mamlakatimizdagi bozor axborot xizmatini rivojlantirish, marketing xizmati faoliyatini va tashqi iqtisodiy qonunchilikni faollashtirish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning me‘yoriy asoslarini yaratish.

O‘zbekistonda investitsion muhitni takomillashtirish, xorijiy kapitalni jalb qilish uchun qulay makroiqtisodiy siyosatni shakllantirish bo‘yicha ish olib borish muhim hisoblanadi va bu borada quyidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchidan, inflyatsiya darajasini investitsion loyihalar qiymat o‘shishiga ta‘sirini kamaytirish, shuningdek, xorijiy investitsiyalar xajmini yanada ko‘paytirish. Ikkinchidan, investitsiyalarni real ishlab chiqarish sohasiga, ya‘ni xomashyoni qayta ishlovchi tarmoqlarga jalb etish. Uchinchidan, chet el investorlariga yanada qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, xususan, soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini investorlar uchun ham soddalashtirish. To‘rtinchidan, xorijiy iqtisodiy sub‘yektlar bilan o‘zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish tizimini takomillashtirish va ular bilan erkin investitsion iqtisodiy zonalarni tashkil etish. Qolaversa, bu omillar mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishida muhim hisoblanishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. -25 b.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: «Adolat», 2016 y. – 400 b.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida”gi Qonuni. 1996-yil 25-aprel.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi Qonuni. 1998-yil 30-aprel.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida”gi Qonuni. 1998-yil 30-aprel.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni. 2014-yil 10-dekabr.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi PF–4434-sonli “To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni.
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-sonli “O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni.
- 1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 15-apreldagi PQ-2164-sonli “Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.
- 1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21-dekabrda PQ-2454-sonli “Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori.

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi PF-4853-sonli “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 23-dekabrdagi PQ-2697-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi Qarori.

1.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12-yanvardagi PF-4931-sonli "Urgut", "G‘ijduvon", "Qo‘qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli " O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31-martdagi PF-4996-sonli " O‘zbekiston Respublikasi investisiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.16. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. – T.: “O‘zbekiston”, 2012. 36 b.

1.17. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirish. – T.: “O‘zbekiston” 2013. 63 b.

1.18. Karimov I.A. “2014 yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi”.-T.: “O‘zbekiston”, 2014. 64 b.

1.19. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. –T.: O‘zbekiston. 2015. 74 b.

1.20. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir”. 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.-T.:2016. 72 b.

1.21. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: "O'zbekiston", 1995. 200 b.

1.22. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz.-T.: "O'zbekiston", 2001. -157 b.

1.23. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz -Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.-T.: "O'zbekiston", 2010. -57 b.

1.24. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017 y. -48 b.

1.25. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017 y. -56 b.

1.26. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017 y. -104 b.

## **II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar**

2.1. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. Москва: "Юристъ", 1999. – 368 с.

2.2. Адрианов В.Д. Россия: экономический и инвестиционный потенциал. Москва:"Экономика", 1999. – 296 с.

2.3. Аладин В.В. Инвестиционная деятельность субъектов Российской федерации. – М: Социум, 2002. С.17.

2.4. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Moliya, 2010 y. 320 bet.

2.5. Данько Т.П., Окрут З.М. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве. Москва:ИНФРА-М, 1998. – 168с.

2.6. Деверюкс Д., Робертс Б. Прямые иностранные инвестиции и благосостояние в странах с переходной экономикой: на примере Центральной Азии. Экономическое обозрение. 1998, 3 ном, 49 стр.

2.7. Hikmatov A. Iqtisodiy islochlarni erkinlashtirish va investitsiya siyosati. // Bozor pul va kredit jurn. 2000. №6. 49-40 b.

2.8. “Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatning roli” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T.: TDIU, 2005.

2.9. Kayumov R., Xojimatov R. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. - T.: TDIU, 2010. 188 b.

2.10. Лоренс Дж. Г., Майкл Д. Дж. Основы инвестирование.-М.: “Дело”, 1997. Стр. 10

2.11. Madumarov H. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish omillari. // Bozor pul va kredit. Toshkent: 2010. №5. 25-27 b.

2.12. Mamatov B.S., Xujamkulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2014. 608 b.

2.13. Maqsudov F., Anorqulova I. O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun bevosita xorijiy investitsiyalar: ishlarning borishi va istiqbollari. //Bozor,pul va kredit. 5-son, 1997. 6-b.

2.14. Nasretdinov S. Jozibador investitsion muhit–iqtisodit yuksalish negizi. // Bozor pul va kredit. Toshkent: 2007. №7. 9-10 betlar.

2.15. Oblomuradov N.N. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslari va ustuvor yo‘nalishlari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. Toshkent:O‘zMU, 2001. – 24bet.

2.16. Raimjonova M.A. Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. Toshkent: Extremum-press, 2013.176 b.

2.17. Soliyev A.S., Mirzaaxmedov S.X., Jumaxanov Sh.Z “Qo‘shma korxonalar geografiyasi”. Namangan.: Namangan nashriyoti, 2006.

2.18. Xaydarov N. X., Ubaydullaeva S.F. “Xorijiy investitsiyalarni muvofiqlashtirish masalalari”. Toshkent - 2011y. 24-25 betlar.

2.19. Xaydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2003. 29 b.

2.20. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. -T.: "Moliya" nashriyoti, 2003. 14-15-b.

2.21. Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. ИНВЕСТИЦИИ: Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2003. – XII, С.1.

2.22. Шевчук Д.А. Организация и финансирование инвестиций. Ростов н/Д.: Феникс, 2008. – 272 с.

### **III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar**

3.1. O'zbekistonda qurilish. Statistika to'plam. –T.: Yig'ma-axborot ishlari boshqarmasi, 2016. -177 b.

3.2. Финансово-кредитный словарь. Т. 1. – М.: «Финансы и статистика», 1984. - С. 470.

3.3. Internet saytlari.

- <http://www.ziyonet.uz> (Axborot ta'lim tarmog'i)
- <http://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi)
- <http://www.cbu.uz> (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki)
- <http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
- <http://www.mfer.uz> (O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi)
- <http://www.mineconomy.uz> (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)
- <http://www.tfi.uz> (Toshkent Moliya instituti)
- <http://www.worldbank.org> (Jahon banki)